

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Filologiya fakulteti

dekani \_\_\_\_\_ dots. I.Xudoynazarov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014- yil

“5220100-“ Filologiya” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

IV kurs 44-guruh talabasi

**Raupova Manzuraning**

**JADID SHE'RIYATIDA AN'ANA VA ADABIY TA'SIR MASALASI**

mavzusida yozgan

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

Talaba \_\_\_\_\_ M.Raupova

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ f.f.n. Sh. Nuriddinov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014- yil

“Himoyaga tavsiya etildi”

O'zbek adabiyoti kafedrası

mudiri \_\_\_\_\_ dots. G. Imomova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014- yil

**Qarshi – 2014 yil**

## MUNDARIJA

TUSHUNTIRISH QISMI - KIRISH.....3-bet

### I BOB. DAVR VOQEALARINING SHE'RIYATDA AKS ETISHI

1.1. Ayrim tarixiy va ijtimoiy voqealarning badiiy ifodasi.....7-bet

1.2. Ayrim shaxslar hayoti bilan bog'liq voqealarning badiiy ifodasi.....21-bet

### II BOB. LIRIK JANRLAR BILAN BOG'LIQ ADABIY AN'ANALAR VA IJODIY TA'SIR MASALASI

2.1. G'azalnavislik an'anasi.....36-bet

2.2. Musammat turkumi bilan bog'liq an'analar.....47-bet

UMUMIY XULOSALAR.....54-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....56-bet

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Milliy istiqlolga erishilganimizdan so‘ng ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohalari qatori ma’naviyatga, madaniy merosga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchaydi. Buning natijasi o‘laroq, sho‘rolar davri adabiyotshunosligida hayoti va ijodiy merosi bir tomonlama tadqiq etilgan yoki butunlay chetga surib qo‘yilgan ko‘plab shoiru adiblar ijodiy merosini ilmiy o‘rganish, xolis baholash masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Yurtboshimiz Islom Karimov ham “mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag‘onlar paytida zulm va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan, istiqlol yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo‘yish, ularning el-yurt ozodligi yo‘lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o‘rganish aynan ana shunday ma’naviy negizda yo‘lga qo‘yilgani”ni ta’kidlaydilar<sup>1</sup>.

Milliy uyg‘onish davri adabiyotida, ayniqsa she’riyatida adiblar ijodida o‘zaro ijodiy ta’sir va adabiy an’analarning o‘rganilishi, uning adabiyotshunoslik uchun qimmatli jihatlarin tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Milliy uyg‘onish davri adabiyotida adabiy an’ana va o‘zaro ijodiy ta’sir masalasi adabiyotshunosligimizda ma’lum bir miqyosda tadqiq etilgan. Xususan, Kamiy, Sidqiy Xondayliqiy, Miskin, Xislat, Tavallo, Yusuf Saryomiy, Haziniy, Fitrat, Cho‘lpon, Hamza kabi shoirlar ijodi ancha izchil o‘rganilgan.

Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” tazkirasida, “Milliy uyg‘onish davri materiallari” to‘plamida, shuningdek, yuqorida nomlari keltirilgan shoirlaring she’riy to‘plamlari va ular ijodi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Qolaversa, B.Qosimov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, A.Jalolov kabi olimlarning tadqiqotlarida bu mavzu keng yoritilgan. Biz ham mazkur ishimizda jadid she’riyatida an’ana va ijodiy ta’sir masalasini imkon darajasida atroflicha tadqiq qilish niyatidamiz.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot mavzusi O‘zbek adabiyoti kafedrasining ilmiy ishlar rejasiga

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008. – B. 97.

muvofig bo'lib, Qarshi DU O'zbek adabiyoti kafedrasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Milliy uyg'onish davri she'riyatida an'ana va o'zaro ijodiy ta'sir masalasini o'rganishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.**Q'oyilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar bajariladi:

- Jadid she'riyatida adabiy an'ana va o'zaro ijodiy ta'sir masalasi aks etgan manba va ma'lumotlarni to'plash, o'rganish va tadqiq qilish;
- davr adabiy hayoti va ma'rifatchiligida alohida o'rin tutgan ayrim adiblar faoliyati bilan bog'liq lavhalarni ochib berish;
- XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijtimoiy hayotda ro'y bergan ba'zi voqeliklarga ijodkorlarning munosabatlarini o'rganish;
- Jadid shoirlarining g'azalnavislikda boshqa yirik ijodkorlar va zamondosh shoirlarga izdoshligi, an'ana va novatorlik jihatlarini yoritish;
- musammat turkumidagi ayrim janrlarda yaratilgan lirik she'rlarning badiiyati, o'ziga xos jihatlarini tahlil etish.

**Ishning ilmiy yangiligi** milliy uyg'onish davri adabiyotida ijod qilgan shoirlarning ustoz shoirlar va o'z zamondoshlari ijodiga munosabati, ular qalamga olgan mavzularni rivojlantirganligini ko'rsatib berish, asarlarining janr tabiatini, mavzu ko'lamini, ularning yetakchi taraqqiyot tamoyillarini tahlil va tadqiq etish bilan belgilanadi. Ular yaxlitlikda ishning ilmiy yangiligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishning ilmiy yangiligi yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- milliy uyg'onish davri adabiyotida ayrim voqealarning bir qator adiblar tomonidan bildirilgan munosabatlari o'rganildi;
- ayrim shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq voqealar ilmiy tahlil etildi;
- davr ijodkorlarining g'azalchilikdagi mahorati, o'zaro ta'sir masalasi o'rganildi;
- musammat turkumidagi murabba', muxammas, musaddas kabi janrlarning badiiy xususiyatlari tahlil qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va tadqiq usullari.** Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi, ma'naviyat bobidagi jiddiy o'zgarishlarning

yuzaga kelishida milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining ham oʻziga xos oʻrni bor. Mavzuni tadqiq etishda, belgilangan masalalarni yoritishda Prezident I.A.Karimov asarlari va nutqlaridagi milliy maʼnaviy merosni oʻrganishga doir koʻrsatmalardan, mustaqillikning gʻoyaviy asoslari, milliy mafkura masalalariga bagʻishlangan dasturiy ahamiyatga molik hujjat va asarlardan bitiruv malakaviy ishga metodologik asos sifatida foydalanildi.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishda oʻzbek adabiyotshunoslaridan A.Qayumov, Gʻ.Karimov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, U.Normatov, N.Karimov, A.Jalolov, B.Toʻxliyev, U.Dolimov kabi olimlarning nazariy va metodologik qarashlariga hamda ularning tadqiqotlaridagi ilgʻor tajribalar va yutuqlarga tayanildi.

### **Bitiruv malakaviy ishning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Bitiruv malakaviy ish mavzuni oʻrganish jarayoni orqali badiiy soʻz sanʼatida, xususan, milliy uygʻonish davri adabiyotida oʻzaro ijodiy hamkorlik, anʼana va adabiy taʼsirning muhim oʻrni borligi haqida ilmiy-amaliy tushuncha hosil qilindi. Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlari muhim oʻrin tutadi. Chunki, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarida milliy uygʻonish davri adabiyoti va uning oʻziga xos xususiyatlari, davr ijodkorlarining uslubiy qirralari, ijodkorlar qoʻllagan mavzular doirasi haqida nisbatan keng nazariy maʼlumotlar oʻqitiladi. Bitiruv malakaviy ishida tahlil obyektiga tortilgan adabiy material hamda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan, umumlashtiruvchi fikrlardan milliy uygʻonish davri adabiyoti tarixini kengaytirishda, oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, oʻrta maxsus taʼlim tizimi hamda akademik litseylarning yuqori kurslar talabalari uchun tanlov va ixtisoslik mashgʻulotlari oʻtishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot materiallari va ilmiy kuzatishlar jadid shoirlari ijodiga bagʻishlangan risola, qoʻllanma hamda monografiyalar yaratishda manba boʻlib xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining obekti va predmeti** sifatida B.Qosimovning “Milliy uygʻonish”, “Oʻzbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi” nomli

monografiyalari, Po‘latjon Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” tazkirasi, “Istiqlol qahramonlari” seriyasidagi kitoblar to‘plamidan foydalanildi.

**Ishning sinovdan o‘tishi.** Bitiruv malakaviy ishi Qarshi davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasida bajarildi va kafedra yig‘ilishida muhokama etilib, himoyaga tavsiya qilingan.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Ish Kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 58 sahifadan iborat.

## I BOB. DAVR VOQEALARINING SHE'RIYATDA AKS ETISHI

### 1.1. AYRIM TARIXIY VOQEALARNING BADIY IFODASI

Ko'p asrlik o'zbek mumtoz adabiyotining ajralmas qismi bo'lgan milliy uyg'onish davri adabiyotida ijtimoiy hayotning turli sohalarida ro'y bergan voqea va hodisalar ijodkorlar tomonidan qalamga olingan. Buning sababini bir qator jihatlarda ko'rish mumkin. Birinchidan, jadid ijodkorlari o'z zamonalarida bo'layotgan hodisalarga befarq bo'lmaganlar, ularga o'z ijodlari orqali zudlik bilan munosabat bildirganlar. Ikkinchidan, bir mavzuda turli ijodkorlarning o'zaro ijodiy musobaqasi yuzaga kelgan. Uchinchidan, biror adib hayoti va adabiy merosini o'rganishda bu mavzudagi asarlar qimmatli manba hisoblanadi. Quyida ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

**Ilm-ma'rifat mavzusi.** XX asr tongida mustamlaka Turkistonda milliy ozodlik shiori ostida jadidchilik harakati paydo bo'ldi va jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Bu harakatning asosiy g'oyasi bo'lgan ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik adabiyotning bosh mavzusiga aylandi. Jadidchilik ham shaklan, ham mohiyatan butunlay yangi adabiyotni shakllantirdi. Turkiston ma'rifatparvar ziyolilari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHO'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Siddiqiy-Ajziy, Hamza, Kamiy, Miskin, Xislat kabi ijodkorlar ilmsizlik, ijtimoiy qaramlik, ma'naviy-ma'rifiy qoloqlik illatlaridan qutulish va ma'rifatga erishish g'oyalarini o'ziga xos badiiy talqin etdilar. Maorif sohasini yuksaltirish, ma'rifat orqali xalqni zalolatdan qutqarish davr talabi, hayotiy ehtiyoj edi. Matbuot bilan yaqindan tanish bo'lgan shoirlar ma'rifatparvarlik mavzuida o'nlab she'rlar yaratdilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko'p ijodkorlarning she'riyati mazmunan bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, Abdulla Qodiriy bir g'azalida jaholatda yotgan xalqidan norizo bo'lib:

*Ko'r bizing ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,*

*Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulga sotamiz.*

*O'g'limizga na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak,*

*Na xudoni buyrug‘i bo‘lgan ulum o‘rgotamiz<sup>2</sup>-*

desa, Abdulla Avloniy bu mavzuni quyidagicha talqin etadi:

*Yotursan tobakay g‘aflat quchog‘inda, uyon millat*

*Jaholat jomasin ustingdan irg‘it tur, zamon millat.*

Ma‘rifatparvar shoir Miskinning ilmsizlik va millatdoshlarining bundan ortmasligi haqidagi «Biz qanday holdamiz» she‘ri yuqoridagi nazm namunalariga mohiyatan uyg‘undir:

*Ilm erur, beshak, bilingiz, dardimizning chorasi,*

*Ilmsiz bitmas marizu jahlimizning yorasi,*

*Ilm ila bo‘lgay musaffo ko‘nglimizning qorasi,*

*Guldin ortiq ilgimizg‘a kirsam ilmning xorasi,*

*Ilma aylaylik taraddud vaqt g‘animat, do‘ston!*

*Ilm ila Miskin kabi vayronalar ham bo‘ston!*

Bu misralar xalq va vatan hayotidagi nuqson va illatlar ilmsizlik sababli sodir bo‘lgani o‘sha davr she‘riyatida ana shunday izchil va mushtarak tasvirlanganidan dalolat beradi.

Jadid shoirlari ijodida **maktab va maorif** masalasi alohida o‘rin tutadi. XX asr avvalida millat ziyolilari diqqat markazida bo‘lgan maktab masalasi xususida bu davrning ilg‘or ma‘rifatparvar adiblari ijodida ko‘plab asarlar yaratilgan. Milliy uyg‘onish harakatining bosh g‘oyasi Vatan va millat ozodligi edi. Taraqqiyot poydevori maktab ekanligini anglagan ma‘rifatparvarlar butun ijodini, faoliyatini ana shu buyuk maqsad uchun tikishdi. Mashhur ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy bu masalaga to‘g‘ri va haqqoniy yondashgan: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib – taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha (zamonga mos) isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradin mahrum qolub, sanoye’ va

---

<sup>2</sup> Кодирый А. Диёри бакир. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 21.

maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas”<sup>3</sup>.

Davrning yetuk ziyolisi sifatida Kamiy ham bu mavzuga ko‘p bora murojaat qiladi.

Kamiyning “Murabba’i dar ta’rifi maktab” she’rida quyidagi misralarni uchratamiz:

*Maktabki, koni ilmu hayovu adab erur,  
Maktabki, fayz chashmasiyu fazli rab erur.  
Maktabki, obro‘yu kamola sabab erur,  
Maktabki, favqu har shayu kulli nasab erur.*

*Maktab emasmu ikki jahonning saodati,  
Maktab emasmu davlatu iqbol ra’iyati,  
Maktab emasmu mol ila johning ziyodati,  
Maktabki, ma’dani durri siymu zahab erur.*

Milliy uyg‘onish davri adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri shoir Miskin “Maktab haqinda” she’rida mana bunday yozadi:

*Ma’da ni izzu ulou lutfi Rab maktab erur,  
Maxzani mehru vafou zu-l-hasab maktab erur,*

*Manbai hilmu hayo, bobi adab maktab erur,  
Fozilu dono, rasolarga sabab maktab erur.*

Shoir maktabni azizlik va yuksaklik ma’dani, mehru vafoning xazinasini, yumshoq tabiatlilik va hayo manbai, odoeb eshigi deya e’tirof etadi. Uning nazdida maktab – millat koriga yaraydigan fozilu donolarning kamolotiga sabab bo‘luvchi oliy maskan.

Ilmu maorifga e’tiborni bir daqiqa bo‘lsa-da, kechiktirib bo‘lmasligini anglagan shoir bugungi g‘ayratsizlik zamirida ertaning xorligi, hatto motami

---

<sup>3</sup> Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 1999. – Б. 176.

xavfidan tashvishlanadi. Jaholat girdobida qolgan avom har yerda mulzam, begonalar esa ilm ila xurram ekanidan iztirob chekadi:

*Jon nisor etsak hamisha ilm uchun kamdur bu dam,  
Ilmsiz qolsak, keyin bizlarg'a motamdur bu dam,  
Ibrat olingiz, avom har yerda mulzamdur bu dam,  
Ko'rasiz begonalar ilm ila xurramdur bu dam.*

Musaddas janrida yaratilgan mazkur she'ning har bandi so'ngida

*Ziynati millat Ajamdin to Arab maktab erur,  
Ko'z oching atrofi olamga, talab maktab erur,-*

misralarini takror qo'llar ekan, shoir maktabning millat taraqqiysi uchun "ulug' imorat" (Behbudiy iborasi) ekanligini qayta-qayta ta'kidlayotgandek bo'ladi.

Kamiyning "Murabba'i dar ta'rifi maktab" she'rida "*Maktabki, malja'i Ajamu ham Arab erur*" (Ma'nosi: *Maktab – barcha Arab va Ajam xalqlari uchun sig'iniladigan joy*) misrasi beriladiki, bu ikki ijodkor qarashlaridagi mushtaraklikni bildiradi.

**Ijtimoiy mavzu.** Jadid adabiyotida ko'plab ijodkorlar o'z ijodini dastlab ishqiy she'rlar yozish bilan boshlaganlar. Keyinchalik esa zamonasining yetakchi mavzusi bo'lgan ma'rifatparvarlik targ'iboti va boshqa ijtimoiy mavzularda mahorat bilan qalam tebratdi. Professor Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda: "Ularning dastlabki she'rlari azaliy va abadiy mavzu bo'lgan muhabbat haqida, visol quvonchlari, hijron iztiroblari haqida edi. Lekin ko'p o'tmay she'riyatiga zamon sadolari kirib keldi"<sup>4</sup>.

Shu mazmundagi she'rlarning bir guruhi - ba'zi matbuot nashrlari munosabati bilan yozilgan she'rlardir. Bir qator ma'rifatparvar shoirlar o'z davri voqeliklariga befarq bo'lmagan holda, davr adabiy muhiti va ijtimoiy hayotni muntazam kuzatib borgan hamda ularga o'z vaqtida munosabat bildirganlar. 1907 yil 1-dekabridan Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar boshchiligida Toshkentda jadidlarning "Shuhrat" gazetasi chiqa boshlaydi. Bu gazeta eskilikka, haqsizlikka va zulm-zo'rlikka qarshi kurash boshladi va Abdulla

---

<sup>4</sup> Қосимов Б. Салом, келажак. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 110.

Avloniy to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “bir yoqdan ilmiy islohot uchun mafkura hozirlagon bo‘lsa, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxmini sochdi”<sup>5</sup>. Xalqimizning milliy-ijtimoiy uyg‘onishida katta xizmat qilgan mazkur gazetaning chiqishi munosabati bilan tabrik sifatida yozilgan “Rajoi ojizona” she’ri Miskinning o‘z davrining zakiy ma’rifatparvari bo‘lganligi isbotidir. She’riy tabrikda shoir xalqparvarlikni Vatan taraqqiysi, millat rivoji uchun jonbozlikda deb biladi:

*Fahmu xiradg‘a tahsin shirin zabona “Shuhrat”,  
Dil qayg‘usin yozarg‘a guftori shona “Shuhrat”,  
Insof keltur, ey dil, na xush bayona “Shuhrat”,  
Ilming xazinasida duri yakdona “Shuhrat”,  
Yoron, o‘qunglar olib, rohat bu jona “Shuhrat”.*

Yoki xuddi shunday mazmundagi she’rni shoir Xislat ijodida kuzatamiz. Xislatning 1917 yil voqealariga qadar ijodidagi e’tiborga sazovor voqealardan biri uning “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan hamkorlik qilishidir. U 1914 yil mazkur gazeta nashr etila boshlashi bilan shu tarixiy voqeani olqishlovchi, o‘zining Munavvarqori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo‘jayev singari taraqqiyparvar kishilar maslakdosh ekanligini ko‘rsatuvchi va shu yaqinlik bilan faxrlanuvchi kishi ekanligini ko‘rsatadi. U gazetaning 6-sonida e’lon qilingan she’rida qalbidagi bunday samimiy tuyg‘ularni ifodalab yozadi:

*Dilimning orzu-yu muddaosi,  
Edi doim bu “Turkiston sadosi”.*

*Hazonon shukrkim, chiqdi quyoshdek,  
Jahonni aylabon ravshan ziyosi.*

*Muning nashriga qilsam etgay,  
Nisori molimu jonim fidosi.*

*Yozilg‘on so‘zlari har qaysi durdin,*

---

<sup>5</sup> Туркистон вилоятининг газети. 1914 йил 24 июнь.

*Ziyodlik aylagay duru bahosi...*

*Xirad piri, miyoni millat ila,*

*Dedi: ta'rix "Turkiston sadosi".*

Davrdagi ayrim voqealar munosabati bilan yozilgan she'rlar haqida. 1917 yilgi fevral inqilobini Rossiya imperiyasi hududidagi boshqa millatlarda bo'lgani kabi Turkiston ziyolilari ham katta quvonch va umidlar bilan qarshiladilar. Buning zamirida yangi hukumat bizga hurriyat beradi, degan ishonch bor edi. Bu inqilobni Miskin ham xuddi shu ruhda kutib oldi. Shoirning "Hurriyat" she'ri ayni shu umidvorlik va quvonch munosabati bilan ijod etilgan:

*Qorong'u erdi olam, zulmi abr ila shabistondek,*

*Yoritti adl burjindin chiqib mohtobi hurriyat.*

*Jafoyu javr dashtida hama xalq erdi labtashna,*

*Keturdi mujdalar mavj urdi deb ummoni hurriyat...<sup>6</sup>*

Keyinchalik ro'y bergan Oktabr to'ntarishi, "Qo'qon muxtoriyati"ning qonga botirilishi kabi mash'um voqealardan so'ng "hurriyat"ning "puch yong'oq" ekanligini anglagan ko'pgina Kamiy, Tavallo, Sidqiy, Xislat singari shoirlar ijodida afsus-nadomat ohanglari ham seziladi.

Bu davr adabiyotida masjid, madrasa, mehmonxona kabi biror imoratning barpo qilinishi munosabati bilan yozilgan she'rlar ham ko'p uchraydi. Miskinning "Bir imorat xususida" she'ri toshkentlik Muhrim aka degan kishining mehmonxonasi qurilishiga bag'ishlab yozilgan. Xuddi shunday mazmundagi she'r Yusuf Saryomiy ijodida ham uchraydi.

Jadid she'riyatida ko'p bora qalamga olingan mavzulardan yana biri Birinchi jahon urushi va mardikorlikka olish voqealaridir. Turkistondagi jadidlar 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushining tub mohiyatini anglab yetdilar. Jadid adabiyotida bu mavzu keng ifodasini topdi. Ularning ayrim xarakterli bo'lganlarini keltirib o'tamiz:

---

<sup>6</sup> Мискин ("Адабий меросимиз" туркумидан; (Сахифани Мухсин Зокиров тайёрлаган). "Тошкент оқшоми" газетаси, 1967 йил, 28 июль.

Avloniyda:

*Ovrupoda o't chiqdi raqobat asarindan,  
Milyonlab ayildi azamat jon-jigarindan,  
Inson na zamon al chekadir qon icharindan,  
Ne vaqt o'sonur yer talashib jon chiqarindan.  
Yer kurrasining mehvari chiqdi icharindan,  
Ovrupo olovlandi bu yong'in safarindin.*

Shoir urushni qoralaydi, uni insoniyatning ofati sifatida ko'rsatmoqda. Shuning o'zi ham o'sha davrdagi sharoit ko'zda tutilsa, katta gap. Lekin muhimi shundaki, shoir birgina baholash bilan cheklanib qolayotgani yo'q. U urushni keltirib chiqargan sabablarni, uning mazmun-mohiyatini ham belgilashga intilmoqda. E'tibor qilgan bo'lsangiz, shoir bu "o't"ning "raqobat" natijasida chiqqaniga "qon ich"ish va "jon chek"ishlarning zamirida "yer talashish" turganiga diqqatingizni qaratmoqda. Bir so'z bilan aytganda, hodisaga realistik yondoshilmoqda. Avloniy bir tomonda "Angletar" (Angliya), ikkinchi tomonda "Olmoniyo" (Germaniya) bosh bo'lgan bu urush "olama hokimlig'" maqsadida boshlanganligi va u butun Ovruponi o'z qa'riga olgnaligi haqida so'z yuritadi:

*Bu ikki "bahodir" o'ziga maydon arodur,  
Atrofida yordamga "bahodir" chaqiradur.  
Bir yonda Georg dahshat ila na'ra urodur,  
Bir yonda Vilgelm turubon murt birodur.  
Yer kurrasining mehvari chiqdi icharindan,  
Ovrupo olovlandi bu yong'in safarindan.*

Bu o'zbek adabiyotidagi yagona fakt emas. Anbar Otin "Urush" radifli g'azalida uning "boylik orttirmoq uchun" ataylab "chiqaril"ganini aytib, insoniyatga qilingan xiyonat va jinoyat sifatida baholaydi<sup>7</sup>.

Mirmuhsin Shermuhamedovning quyidagi satrlari esa hali Rossiya urushga kirmagan, lekin urush jazavasi mamlakatda avj olgan bir paytda, 1914-yilning boshlarida yozilgan edi:

---

<sup>7</sup> Anbar Otin. She'rlar. Risola. T.: 1970, 49-bet

*A'lamu mufti hama fatvofurush,  
Zoti sharif derki, ko'paysin urush.  
Man na qilay yig'lamayin ahli hush.  
Barcha bu ishlarga hamona xomush,  
Ko'zlarini ochdi, ko'ring, qildi sog',  
Echkini – jon qayg'usi, qassobni –yog'.*

She'riyatimizga urush mavzuining kirib kelishini qardosh tatar va ozarbayjon adabiyotlari bilan qiyoslash masalani ravshanroq tushunishga yordam beradi. Mashhur M.Qafuriy 1914-yilning oktabrida "Fitrat zamoni" degan she'r yozgan va Allohga murojaat qilib, urush dahshatlaridan so'z ochgan edi. "Qiyomat" she'rida esa gapni "kuchlilar"- "kuchsizlar"ga buradi. Urusni Xudoning "kuchilar"ga yuborgan jazosi sifatida talqin qiladi. Mashhur ozarbayjon shoiri Muhammad Hodining "Insonlarin tarixiy fojialari yoxud Alvohi intiboh" poemasi shunday satrlar bilan boshlanadi:

*Hayotin saslari qo'shimda har faryod shaklinda,  
Bu insonlarki gardashdir va lekin yod shaklinda.  
Bu turpag' qanli avlagdir, basher sayyod shaklinda,  
Adovat doimo vordir, muhabbat od shaklinda.  
Bu dunyo eskidandir sahnayi bedod shaklinda,  
Jahon boshdan-bosha maydoni motamzod shaklinda,  
Farahlar hibs o'linmish, huznlar ozod shaklinda,  
Musibatlar, balolar, g'ussalar obod shaklinda,  
Yuraklar g'am o'di-la har zamon barbod shaklinda,  
Bohishlar kulgali, o'zlari butun noshod shaklinda,  
Bu motamgohi kim go'rmish sururobod shaklinda.*

Shoir insonlar fojiasining azaliyligini isbot uchun gapni yana o'sha afsonaviy Qobil va Hobil voqeasiga olib borib bog'laydi. Darhaqiqat, urushni inkor etish, uni insonlar boshiga yog'ilgan balo-ofat shaklida his qilish va uni adabiyotga olib kirish Rusiyaning "rus bo'lmagan" xalqlari adabiyotida 1914-yilning oxiri, 1915-yillarning avvalidan boshlangan edi.

Urush chor samoderjaviyesining tanazzulini ochiq-oshkor qildi, ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi. 1916-yili mamlakatda ijtimoiy norozilik boshlandi. Uning ustiga, o'sha yili hosil deyarli bitmadi Yil juda quruq keldi. Oziq-ovqat tanqisligi ko'p o'tmay butun mamlakatni o'z qo'liga oldi. Butun Rusiyadagi singari Turkistonda ham qahatchlik yuz berdi.

*Qahatlik bo'ldi bu Farg'onamizda,  
Topilmas parcha non vayronamizda.  
Payg'ambar bo'lsa non, osh avliyodir,  
Yana ochlik davosiz bir balodir, -*

deb yozadi Zavqiy.

Toshkentlik Tavalloning bir she'ri:

*Kambag'al bechoralar holing so'rar bir kimsa yo'q,  
Tortadur qimmatchilikda kunda zahmatlar, darig'.  
Boylar oldi g'alla arzon chog'da ombor to'ldirub,  
Kambag'allardan chiqar chang, qilsa hasratlar, darig',-*

degan satrlari bilan boshlanardi.

Urush esa har kuni minglarga tinch va osoyishta xonadonlar baxtiga chang solar, o'ziga tinimsiz qurbonlar chorlar edi. Ko'p o'tmadi. Urush va uning oqibatlariga oid mulohazalar she'riyatda tobora ko'proq kirib kela boshladi. Tantanavor ohang bilan to'liq "vatanparast" she'rlar keskin kamaydi. Ularning o'rnini xalq boshiga tushgan fojialar tasviri egalladi. Shoirlarimiz urush va unga munosabatni qayta ko'rib chiqa boshladilar.

*Qildi zamona ahlini hayron muhoraba,  
Har go'sha ichra ayladi giryon muhoraba,  
Tang ayladi-yu, qildi bag'ir qon muhoraba,  
Girmon qirisun aylamay e'lon muhoraba,  
Balqon ham o'lsun aymayin a'lon muhoraba,-*

deb boshlanadi yaqindagina oq podshoga sidqidildan zafar tilab yurgan Sidqiyning "Muhoraba daf'i uchun munojot" she'ri. Shoir "sarson bo'lgan ahli vatan", "xaloyiq" hasratidan so'z ochadi.

*O'ldi milyonlar basher avlodi qurbon bedarig',  
Oqdi qonlar on qadrakim, o'ldi sahro lolazor.  
Mamlakatlar ahli qoldi yuz tuman tashvish uza,  
Turli-turli sho'ru shar olamda o'ld oshkor.*

deb yozadi andijonlik Mirzo Olim Javhariy va uni “Mashvaratsiz”, “Maslahatsiz” bo'lgan urush deb baholaydi.

1916-yilning 25-iyunida Nikolay II “Imperiyadagi g'ayrirus aholining erkaklarini harakatdagi armiya turgan rayonlarda mudofaa inshootlarini va harbiy aloqa yo'llarini qurish ishlariga, xuddi shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga safarbar qilish to'g'risida” farmon berdi. Turkistondan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan 250 ming ishchi olinadigan bo'ldi. Ko'p o'tmay, “har qanday mahalliy kishi boshqa damni yo'llashi va o'zining o'rniga jo'natishi mumkin”ligi haqida ko'rsatma keladi. Uni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, zo'ravonlik avj oldi”. Norozilik boshlandi. Ommaviy repressiyalar, tubjoy aholining har qanday harakatlariga chek qoyish maqsadida temir yo'l biletlarning uezd boshlig'i ruxsatisiz sotilmay qoyishi ham yordam bermadi.

Chor hukumati yon berishga majbur bo'ladi. Mardikorlikka olinadiganlar soni qisqartirildi. Ularni jo'natish keyinga surildi. O'lka ahvolini tekshirish uchun Kerenskiy ishtirokidagi komissiya yuborildi. Turkistonni yaxshi bilgan Kuropatkin general-gubernator qilib tayinlandi.

1916-yilgi mardikorlik voqealariga bag'ishlangan o'nga yaqin she'riy to'plam bosilib chiqqanligi ma'lum. Bular orasida Hamzaning mashhur “Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi”ning 7-bo'limi – “Safar gul” (Qo'qon, 1917), Muhiddin Ibrohimov tuzgan “Loshmon” (Namangan, 1916), Avloniyning “Mardi-korlar ashuvlasi” (T., 1917), Akbariy Toshkandiyning “Vatanga xizmat” (T., 1917), Sidqiyning “Rabo(t)chilar namoyishi” (T., 1917), “Rabo(t)chilar kelishi” (T., 1917), Mulla Murtazo bin Ismoiljonning “Vatan xizmati” (T., 1917) kabi to'plamlari bor. Shuningdek, Azmiy-Aziziyning “Yangi shugufa yoxud milliy adabiyot” (T., 1917), Sidqiyning “Rusiya inqilobi” (T., 1917) kabi asarlarida ham mardikorlik voqealari tasviri uchraydi. Tabiiyki, bu asarlarning g'oyaviy va badiiy

jihatdan hammasini ham bir baholash mumkin emas. Negaki, bu adiblarning qarash va intilishlari bir-biridan ancha farq qilar edi. Lekin muhimi shundaki, ularning ko‘pchilik qismi shunday og‘ir sinov yillarida xalq bilan yonma-yon bordilar, uning orzu va hasratlarini ifoda qildilar.

To‘plamlarning bir qismi 1916-yil sentabr voqealrining aks-sadosi sifatida maydonga kelgan. Ularni ma’lum darajada xayrlashuv qo‘shiqlari deb atash mumkin. Bu she’rlarda ijodkor ziyolilarimizning urushga bo‘lgan g‘oyat ziddiyatli munosabati o‘z aksini topdi. Bu hol “Loshmon”da, ayniqsa, ko‘zga yaqqol tashlangan edi. Masalan, unda Mehmet Emin Yurdaquldan iqtibos olingan satrlarda turkchilik tuyg‘ulari ko‘proq ifodalanadi.

*Men bir turkman, dinim, jinsim ulug‘dir,*

*Menim qalbim otash birla to‘lug‘dir.*

*Inson bo‘lgan vatanining qulidir,*

*Turk avlodi uyda turmas, ketarman, -*

deb yozadi Muhiddin Ibrohimov.

Marg‘ilonlik Rafiqiyda esa:

*Yurtum mani shul Turon,*

*Bobom mani Ko‘ragon,*

*Vatan uchun xizmatga*

*Doim belim bog‘langon, -*

degan satrlarni uchratamiz.

“Mardikorlar qo‘shig‘i”ning deyarli hammasi Abdulla Avloniy she’rlaridan tashkil topgan edi. Urushda ziddiyatli munosabat Avloniyda ham 1916-yillargacha davom etib keldi.

1927 yilning 26 noyabrda Qo‘qonda ochilgan Musulmonlarning 4-o‘lka qurultoyida “Turkiston muxtoriyati” e‘lon qilindi. Muxtoriyat e‘loni keng xalq ommasidagi kabi adabiyot ahlida ham zavq-shavq uyg‘otdi. Behbudiy va Fitratning qizg‘in, ehtirosli turkum maqolalari, Cho‘lpon (“Ozod turk bayrami”) va Hamzaning (“Turkiston muxtoriyati na”) yoniq she‘rlari dunyoga keldi.

Muxtoriyat 72 kun yashadi. 1918 yilning 19-22 fevral kunlari uni bolsheviklar xoinona qonga botirdilar.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti namunalarida mavjud holatni tanqid qilish, jaholat keltirgan salbiy oqibatlarini ochiq koʻrsatish, inson va jamiyat hayotiga taʼsirini ifoda etish kuchli boʻlsa, boshqa turkiy xalqlar ijodida masalaga boshqacharoq yondashilgan. Masalan, Ismoil Gasprinskiy nafaqat nasriy asarlari, balki goʻzal sheʼrlari bilan ham Turkiston ijodkorlarini ilhomlantirgan edi. Uning “Omon, oʻgʻlim!” (1906), “Qrim” (1910), “Koʻnglim” kabi sheʼrlari “Olami nisvon”, “Maktabi sibyon” va “Tarjimon” sahifalarida chop etilgan. Ushbu sheʼrlarda ifodalangan vatanga muhabbat tuygʻulari Avloniyning shu mavzudagi sheʼrlariga hamohang. Gasprinskiy “Omon, oʻgʻlim!” sheʼrida

*Omon, oʻgʻlim, sotma sogʻin, qoʻlingdagi tuprogʻni,*

*Onang kabi seni boqar barakatli quchogʻi<sup>8</sup>.*

deb vatanni, ona tuproqni asrab-avaylash lozimligi toʻgʻrisida yozadi. Avloniyning “Maktab gulistoni”dan oʻrin olgan sheʼrlari oʻquvchida goʻyo Gasprinskiy ijodining mantiqiy davomidek taassurot qoldiradi. Masalan, uning “Vatan” sheʼrini olaylik:

*Seni sotmoq mumkinmidir, oʻzing oʻyla,*

*Tiling boʻlsa, hasratlaring tuzuk soʻyla.<sup>9</sup>*

Bu kabi mushtaraklik butun jadid adabiyotiga, jadid shoirlar ijodiga xos. Yuqoridagi oʻxshashliklar juda koʻpchilikni tashkil qiladi. Masalan, Gasprinskiyning 1910 yil yozilgan “Qrim” sheʼri ona yurt taʼrifiga bagʻishlangan boʻlib, shoir oʻlkasini dunyodagi eng chiroyli maskan sifatida tasvirlaydi, taʼrif etadi:

*Kelar suvlar yaylovlardan, ne goʻzaldir boʻylari,*

*Oltin oshliq dalalari, qoʻzilari, qoʻylari.*

*Oʻtar qushlar sabo-oqshom, boʻlur yozda guliston,*

*Har tarafga koʻz solarsan – oltin boshliq, bogʻ-boʻston.*

<sup>8</sup> Гаспринский. Аман, огьлум! // Ёылдиз.// №4, 1991, С..96.

<sup>9</sup> Авлоний. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият. 1998, Б.197.

Avloniyda esa:

*Bir tarafda tog 'lari bor,  
Mevasi mo 'l bog 'lari bor.  
Tog 'laridan konlar chiqar,  
Yerlaridan donlar chiqar.  
Suvlaridur tamlu-totli,  
Mevasi qandu-nabotli.<sup>10</sup>*

shaklida ifodalangan. Har ikki ijodkor ham milliy boyliklari, tabiat go'zalliklaridan faxrlangan holda, bu ne'matni kelajak avlodga bus-butunligicha qoldirishni orzu qiladi.

1917 yilga qadar Avloniy, Tavallo, So'fizoda kabi jadid shoirlari asosan, ilmga targ'ib qilgan holda, o'z ideallarini bevosita ma'rifat tushunchasi bilan bog'lagan bo'lsalar, keyingi yillarga kelib, inson ruhiy holati, tuyg'ular ifodasi rangin bo'yoqlarda aks etdi. Bu davrni tadqiq etgan olimlar adabiyotdagi realistik tasvir va romantizm aynan mana shunday asarlar ijod qilinishidan boshlandi, degan fikrni ham aytadilar. Darhaqiqat yangi jamiyat va uni tashkil qiluvchi kishilarning oliy fazilatlarini kuylagan adiblar endi asar markaziga inson omilini olib chiqa boshladi. 1917 yil milliy istiqlol harakati namoyondalari uchun ham, xalq uchun ham g'oyat og'ir, fojiali kelgani tarixiy faktdir. Fitratning "biz bunday muxtoriyatni kutmagan edik" degan o'ksiz nolasi ana shu jarohatning azobidan tug'ilgan edi. Demak, zamon qaltis edi, ziyolilar orasidagi ichki bo'linish, "dano's" (chaqma-chaqarlik)chilarning faol harakati qaysidir ma'noda so'z erkinligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Endi ijodkorlar o'z g'oyalarini, ezgu ideallarini ochiqdan-ochiq emas, ramzlar tilida yoza boshladilar. Masalan, Said Ahroriyning 1918 yilda yozilgan "Uyqudan so'ng" she'rini olaylik:

*Ko 'k yuzida kulgan oyning  
Chehrasida motam bor,  
Yulduzlarning ko 'zlarida  
Alam bo 'ldi oshkor.*

---

<sup>10</sup> O'sha manba B.197.

Odatda, tong saharda uyqudan uygʻongan odamga oy ham yulduzlar ham goʻzal koʻrinadi. Tongda tabiat oʻzgacha qiyofaga kirgan boʻladi. Lekin lirik qahramon oʻz qalbida goʻzallik emas motamni, alamni tuyadi. Yon-atrofi, tabiat – Turkistondagi bunday vayron holat qalbiga ham koʻchadi. U osmonning siynasida kulib turgan oynning yuzini qoplagan qora bulutdan xavotirga tushadi. YAʼni lirik qahramon intilgan oy – erk qora bulut iskanjasida. Nima qilmoq lozim? U ham amali yoʻlida yolgʻiz:

*Oldim, ketdim qorongʻidir,*

*Na chiroq bor, na bir nur, –*

deya davom etib, koʻnglini yoritadigan, istagiga eltadigan yoʻllarning zimistonligidan umidsizlanadi. Bosh olib ketmoqdan boshqa chora yoʻq.

*Har tarafni bugʻ qopladi,*

*Hamda borut tumani.*

*Koʻnglim yigʻlar, koʻzim koʻrmas*

*Boʻldi yorugʻ jahonni...<sup>11</sup>*

Aslida inson uyqudan turib yangi kunni buguni va kelajagi uchun asos boʻlishga arzirli amallar bilan boshlaydi. Said Ahroriyning lirik qahramoni esa ruhiy azob girdobida adashib, koʻngliga yigʻidan boshqa taskin topa olmaydi. Bu yerda real voqelik tasviri orqali shoirning istiqbol orzusi – yuksak ideali anglashiladi. Uning Vatan haqida yozilgan “Yurtning tovushi” sheʼrida bu tushuncha yanada yorqinroq aks etgan:

*Eshit bolam, har qaygʻudan keyin aniq kulmak bor*

*Biz yigʻlatdik yurtni, lekin kelajakda sen kuldir!*

*Kuymak emas, kulmak uchun yaratildi bu diyor,*

*Bu qaygʻular, qora kunlar sening uchun uyatdir!*

Bu nafaqat Said Ahroriyning balki barcha jadid ziyolilarining iqrori, orzulari ifodasidir. Shoir 28 yoshidayoq millat farzandiga oʻgit berishga maʼnaviy tayyor ota sifatida murojaat etadi. Vatanning istiqboli avlodlar qoʻlida ekaniga ishonib, ajdodlar xatosini takrorlamaslikka undaydi.

---

<sup>11</sup> Said Ahroriy. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият . 2001, Б.39

## **1.2. AYRIM SHAXSLAR HAYOTI BILAN BOG‘LIQ VOQEALARNING BADIY IFODASI**

XX asr boshlarida mamlakatimizda milliy uyg‘onish harakatini boshlab bergan fidoyi kishilardan biri va balki birinchisi milliy istiqloqlga chorlagan ko‘plab maqolalar, ma‘rifatparvarlik ishlari bilan mashhur bo‘lgan, birinchi o‘zbek dramasi “Padarkush”ning muallifi Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Birinchi o‘zbek dramasi – “Padarkush”ning 1913 yilda sahna yuzini ko‘rishi Turkistonning madaniy hayotida muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Tomoshabinlar ommasini hayratga solgan bu asarning turli shaharlarda turli havaskorlik truppalari tomonidan namoyish etilishi munosabati bilan o‘sha yiliyoq matbuotda qator xabar va maqolalar e‘lon qilingan. Ammo Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqish ma‘rifatparvar adibning dastlab sirli ravishda g‘oyib bo‘lishi so‘ngra fojeali ravishda vafot etishi bilan bevosita bog‘liq. Behbudiy shu vaqtga qadar ham mufti, ham Turkiston jadidlarining otasi sifatida katta e‘tibor qozonganligi sababli uning fojeali o‘limi butun Turkistonni tom ma‘noda larzaga keltirdi. “Uning o‘limi haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma‘lum bo‘ladi. 1920 yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O‘nlab marsiyalar yoziladi”<sup>12</sup>. Behbudiyning shogirdi Hoji Muinning yozishicha, adibning fojeali o‘limi haqidagi xabar 1921 yilning mart oyida kelgan. Lekin Fitrat, Cho‘lpon, S.Ayniyning marsiyalari 1920 yilda yozilgan. Hatto Ayniy ulardan biriga “1920, IV” sanasi aniq qayd etgan. Demak, adibning vafoti haqida uning do‘stlari va izdoshlari roppa-rosa bir yildan keyin xabardor bo‘lishadi. Va tabiiyki, qatl etilishi sirini, ustozning so‘nggi manzili aniqlashni o‘zlarining burchlari deb bilishgan.

Bu fojia munosabati bilan nafaqat vaqtli matbuot sahifalarida turli va xotiralar bosilib turdi, balki afsus-nadomat ruhidagi o‘nlab marsiyalar yozildi. Shunday marsiyalardan biri Fitrat qalamiga mansub bo‘lib, shoirning marsiyani “Behbudiy sag‘anasini izladim” deb nomlashi bejiz emas. Unda maslakda farzand kabi sodiq shogirdning qalb iztiroblari nihoyatda o‘tkir bo‘yoqlarda chizib beriladi:

---

<sup>12</sup> Qosimov B. Milliy uyg‘onish. T., “Ma‘naviyat” 2002, 233-b.

*Cho 'kmishdi yer uzra olam to 'sug 'i,  
O 'ksizlik boyqushi qanot qoqardi.  
Botuvda qizorib turg 'on bulutdan,  
Ezilgan ko 'nglumba motam yog 'ardi.*

Yer uzra qorong'ulik pardasi tortilib, baxtsizlik boyqushlari qanot qoqqan. Botayotgan quyosh nurida qon tusini olgan bulutdan shoir qalbiga motam yomg'iri yog'a boshlaydi. "Haqsizlik shahrining qon hidli yeli" armon gulidan bir yaproqni uzib, bahorsiz cho'llarga sovurdi. U yaproq hammadan o'z yo'qotganini so'radi, izladi. Tilagidan bir xabar topolmagach:

*Bor kuchin to 'pladi,  
Zolimning taxtini titratgan bir tovush,  
Qichqirdi:  
– Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!  
Bot so 'yla!..  
Kirli toj ko 'b qo 'rqdi botir tovushdan,  
Seskanib, tirab... yoshundi  
Bir javob bermasdan*

She'ning mazmuniga e'tibor qilinsa, undan amir va amirlik nazarda tutilayotganini anglash qiyin emas. "Behbudiy vafoti 7 yilligining keng e'lon qilinishi, Samarqand teatrida bu "asr fojiasi" haqida hikoya qiluvchi "Ma'rifat qurbonlari" dramasi namoyish etilishi, nihoyat, 1929 yilda esa Qarshi shahriga Behbudiy nomining berilishi, garchi maslagi boshqa bo'lsa ham, sovet davlatining Turkiston jadidlari otasiga katta hurmat bilan qaraganini bildiradi. Va bu faktlar: "Behbudiy kim tomonidan o'ldirilgan?" degan savolga uzil-kesil javob bergandek bo'ladi"<sup>13</sup>.

Ayniy bu mavzuda uch she'r yozgan. "Behbudiy ruhig'a ithof" she'rida shoir allomaning Turkistondagi miqyosu mavqeini o'ziga xos tarzda chizib beradi:

*Sani mundin buyon Turon ko 'rolurmu, ko 'rolmasmu?  
Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?*

<sup>13</sup> Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari. T., "O'zbekiston" NMIU, 2008, 41-b.

*San, ey ustodi oliyshon, eding ajubai davron,  
Otingni tilga har inson buyuk hurmat-la olmasmu?*

Keyingi baytda uning Turkiston musulmonlari va ma'rifatparvarlari orasida qanchalik mashhur shaxs ekanligini bayon qiladi:

*Saning tarixiy davroning saning osoru urfoning,  
Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?*

Bunda ham shoir u "xunrez qotil, badiynat, sangin dil" jallodning Xudodan g'ofil bo'lsa, xaloyiqdan ham uyalmaydimi, deya zorlanadi:

*Boshingni kesduran qotil, u badiynat, u sangin dil,  
Xudodin gar esa g'ofil, xaloyiqdin uyolmasmu?*

Shoirning nazdida, o'zini Vatanning ma'rifatli farzandi deb bilgan inson uni yod etmog'i, lozim bo'lsa uning intiqomini olmog'i lozim:

*Vatan avlodi yod etdi, sani hurmat-la shod etdi,  
Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu?*

Mazkur she'rning ikkinchi nomi sifatida "Shabi hijron havosig'a"(Ayriliq tuni havosiga) sarlavhasi keltiriladiki, bu nom she'r g'oyasi bilan nihoyatda uyg'un.

Ayniyning "Behbudiy afandini esga tushirib, qatl va qatlgohiga xitoban" nomli she'rida ham qatl va qatlgohga qarata xitob qilar ekan, Behbudiyning nomini hurmat bilan tilga oladi:

*Minglarcha yigit boshini kaltak bila ezding,  
Minglarcha yigit nash'ini sarjin bila tizding.  
Zindonlarga minglarcha tiriklarni chirutding,  
Tezob ila minglarcha o'luklarni eritding.  
Qur'onni, shariatni ayog' ostida bosting,  
Behbudiy kabi dohiyi Turonni-da osting.*

Marsiyaning so'ngida ko'plab ma'rifatparvarlarning qatliga sabab bo'lgan joyga qarata shunday yozadi:

*Bir kun kelur albat, ojizlarga navbat,  
O'ch olmag'a sandan.  
Ey manbai nakbat,*

*Ko'rsam o'sha kunni!*

Shuni qayd etish kerakki, Behbudiyning dafn etilgan yeri xususida turli fikrlar mavjud. Faqat bir narsa aniqki, Buxoro amirining odamlari tomonidan Qarshida qatl etiladi.

Demak, Behbudiy 1919 yil 25 martda yashirin ravishda Samarqanddan hamrohlari Mardonquli Shomahmud o'g'li va Muhammadqul O'rinboy o'g'li bilan safarga chiqib, bir haftalik yo'ldan keyin 1-2 aprel kunlarida Qarshiga yetib kelgan va qo'lga tushgan. Behbudiyning shogirdi Hoji Muinning yozishicha, 1921 yilning mart oyida Buxoro tuprog'idan kelgan Hojimurod Xudoyberdi o'g'li Behbudiy bilan yo'ldoshlari Muhammadqul va Mardonquli afandilarning Qarshi shahri begi Tog'aybek tomondan qanday shahid etilganligi haqida ma'lumot keltirgan.

Bag'ishlov marsiyalarda adib qabrining noma'lum ekanligi alohida qayd etiladi. Cho'lponning "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi" she'ri xuddi shu mazmun bilan boshlanadi:

*Bilgisiz qabringni qora tunlarda,  
Amalimning shamin yoqib izladim.  
Qizil va pok qoning islarin sochgach,  
Kuchsiz ko'yi yurishimni tezladam.*

Marsiyada Cho'lponning Behbudiyga nisbatan cheksiz muhabbati aks etgan. Bu "Savol berdim: "Yo'qotganim qayda?" deb, O'zimni ham yutmoq bo'lgan erlarga", "Qo'limdagi tutam-tutam gullarim, Qabring topib sochmoq uchun terindi", "...Elda qolgan isming bilan turaman. Shul ismni eslab chizgan yo'lingdan, Yiroq ketmay, qimirlamay yuraman" misralarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

*Men-da ojiz u muhitning oldida  
Qabring topib ko'z yoshimni to'kmakka.  
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda,  
Oq sallalik qora devni so'kmakka.*

misralari orqali ham shoir Behbudiyning qotillari tasvirini ochiqchasiga "chizib" beradi.

Turkiston jadidlarining rahnamosi deya tan olingan Behbudiyni Cho‘lpon ham Fitrat singari ma’naviy padar deb biladi:

*Aziz otam, qo‘limdagi gullarning,  
Motam guli ekanligin bilmaysan.  
Shodlik guli ko‘pdan beri so‘lganin,  
Yer ostida pok ruhing-la sezmayсан.*

Bular nafaqat otashin ma’rifatparvar va vatanparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy vafotiga bag‘ishlangan marsiyalar, balki millatparvar ijodkorlarning yarim yo‘lda qolib ketgan yurt ozodligi uchun chekkan achchiq nadomati hamdir.

Jadidlar hayotida ro‘y bergan muhim yo‘qotishlardan yana biri mashhur ma’rifatparvar Ismoilbek Gaspirinskiy vafoti edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ismoilbek Gasprinskiy nomi Turk dunyosida eng mashhur nom bo‘lgan. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilganlar. U chiqargan “Tarjumon” gazetasining 25 yillik to‘yida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1914 yil 11 sentabrda u vafot etganda Narimon Narimonov shunday deb yozgan edi: “Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o‘z hayotini barbod etajakdir”<sup>14</sup>.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tarixida yaratilgan bir turkum marsiyalar mashhur ma’rifatparvar adib Ismoilbek Gasprinskiy vafoti munosabati bilan yozilgan. Avvalo o‘sha davr matbuotida Gasprinskiy haqida chop etilgan maqolalarga biroz to‘xtalish lozim. O‘z davrida juda katta madaniy-ma’rifiy hodisa bo‘lgan “Sadoyi Turkiston” gazetasida ko‘plab maqolalar chop etilgan. Shulardan biri gazetaning 1914 yil 23 sentabr sonida A.M. imzoli muallifning “Ulug‘ motam” sarlavhali maqolasidir.

Bu mavzuda yaratilgan she‘rlar “barcha turkiy xalqlarni yaxlit yagona millat deb bilgan” (B.Qosimov ta’biri) Gasprinskiy shaxsiyati va faoliyati jadid ijodkorlarining yuksak hurmatidan dalolat beradi. Ulardan biri ma’rifatparvar shoir

---

<sup>14</sup> Qosimov B. Milliy uyg‘onish. -T. Ma’naviyat, 2002. –B. 162.

Miskin qalamiga mansub. Uning “Falaki kajraftordin shikoyat”<sup>15</sup> nomli marsiya-qasidasi shu voqea munosabati bilan yaratilgan:

*Faryod sandin, ey charx, solding biza na savdo,  
Ul “Tarjimon” imizdin aylab bukun judoyo.  
Koring jafo hamisha, ey piri zulmpesha,  
Dod aylayur alingdan har qayda piru barno.*

O‘lim oldida yoshu qari, shohu gado ojiz. Uning kori doimo jafo. Ilmsizlik zulumatidan millat yo‘lini yorituvchi chirog‘ni-da o‘chirdi. Vaholanki, u o‘z zamonasining tanho donishmandi edi:

*Ul Ismoilbek erdi millatni chun chirog‘i,  
Andog‘ chirog‘ o‘churding, zulmatda qoldik, ey vo.  
Asrida onga monand, yo‘qtur desam tong ermas,  
Arbobi donish ichra erdi jahonda tanho.*

Professor B.Qosimov haqli ravishda ta’kidlaganidek, u barcha turkiy xalqlarni yaxlit yagona millat deb bildi. Ularni ham ilm-ma’rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng ko‘rishni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu ishga – millatning ravnaqi va muhofazasi yo‘liga sarf etdi<sup>16</sup>.

She’rning turli mavjudotlarga murojaat etilgan keyingi misralarida shoirning afsus-nadomati, dardu g‘ami, ko‘ngil og‘rig‘i yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shoir fikricha, har bir narsa, butun mavjudot ul zot vafoti sababli nadomat chekmog‘i zarur. Barcha barobar uni vasf etsa arziydi:

*Ey dil, oning so‘zini olamg‘a doston et,  
Ey til, oning kalomin qo‘yma tilingdin aslo.  
Ey xoma, san to‘k emdi, ko‘zdin mudom qaro qon,  
Ey lavh, san qaro bo‘l, motam ila sarupo.  
Ey kilik, yoz jahonga sharhi a‘zosini san,  
Ey safha, san o‘qurda qilg‘il duo tamanno.*

---

<sup>15</sup> “Sadoi Turkiston” gaz. 1914 yil 5 noyabr

<sup>16</sup> Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Ma’naviyat, 2002. – B. 162-163.

Miskin barcha milliy gazetalarga sifatlari yozgan bilan ado bo‘lmaydigan bu ulug‘ ma‘rifatparvar vasfini bitish tavsiyasini beradi. Millat shoirlarini marsiya va ta‘rix yozishga undaydi.

*Ey jumlai jarida, vasfin yozing hamisha,  
Bo‘lmas ado sifoti yozgan ila ko‘p ammo.  
Ey shoironi olam, ash‘or ila damodam,  
Marsiya ila ta‘rix siz ham qiling muhayyo.*

Qasida boshdan oxir afsus-nadomat ruhida yozilgan bo‘lib, unda quyidagicha ta‘rix keltiriladi:

*Zinhor sabr yuzig‘a boqmay dedimki, Miskin,  
Favti ushbu ta‘rix: afsus, vodarig‘o!*

Bu yerda ta‘rix moddasi, Miskinning o‘zi ta‘kidlaganidek, “afsus, vodarig‘o” so‘zlaridir. Bu so‘zlarning umumiy miqdori abjad hisobi bo‘yicha 1429 (milodiy 2008 yil)ni tashkil qiladi. Tabiiyki, bu noto‘g‘ri. Ta‘rixda shoir ishora qilgan sanani aniqlashda birinchi misraning yordamiga tayanamiz:

*Zinhoru sabr yuzig‘a boqmay dedimki, Miskin.*

Shunga ko‘ra, Miskinning o‘zi ishora qilayotganidek, “zinhor” va “sabr” so‘zlarining yuzi (ya‘ni bosh harflari) bo‘lgan “ze”(ز)ning qiymati 7, “sod”(ص)ning qiymati 90 ni 1429 dan isqot qilinsa, hijriy 1332, milodiy 1914 yil sanasi chiqadi. Bu Ismoilbek Gaspirinskiyning vafot yilidir.

Marsiyalarda Ismoilbekning vafoti millat uchun buyuk fojia ekani ta‘kidlanadi. Bu shunchaki yo‘qotish emas, butun Turkiston ma‘rifatparvarlari uchun katta motam edi.

Sadriddin Ayniy yozadi:

*Huzna tushduk qavm! Ismoil mirzodin judo,  
Millato, qolduk yetim ul xud a‘lodin judo.*

Xuddi shunga monand misralar Tavallo ijodida ham kuzatiladi:

*Yig‘la, millat, qon to‘kib, bil, yig‘lamakning vaqtidir,  
Ketti olam arsasidin, deb fig‘oningni oshur.*

Sheʼrning keyingi misralarida saodat yulduzining botishi butun olamni hayratda qoldirgani, chuqur iztirobdan tunu kunni farqlamas holga olib kelgani va butun Turkiston ziyolilari afsurdahol ekani tilga olinadi. Shoir sheʼr soʻngida har qanday qazo Xudoning xohishi ekanligi, bundan hech kishiga qutulmoqlik yoʻqligini aytib, taʼrix tushiradi:

*Ey Tavallo, sabr et emdi yoʻqdir oni yonishi,  
Taʼrixi favti uchun “magʻfur bobo” zuljalol.*

Muallif ishorasiga koʻra, taʼrix yechimi “magʻfur bobo” soʻzlaridan kelib chiqadi. Abjad hisobida uning umumiy adadi – 1332, milodiy yil hisobi bilan 1914 yil, yaʼni Ismoilbek Gasprinskiyning vafot yilini beradi.

Kamiyning “Ismoilbek hazratlarining ruhlarina” sheʼri ham shu singari marsiya-taʼrixga misol boʻla oladi.

11 baytdan iborat gʻazal shaklida keltirilgan mazkur marsiyaning soʻngida Kamiy Gasprinskiyning vafot sanasi kelib chiqadigan murakkab bir taʼrix ham keltiradi.

Adib va shoir Sadridin Ayniyning ayni shu mavzudagi sheʼri murabbaʼ janrida yozilgan boʻlib, sheʼr millatga murojaat bilan boshlanadi:

*Huzna tushduk qavm! Ismoil mirzodin judo,  
Millato, qolduk yetim ul xud aʼlodin judo.  
Ey koʻngullar, oʻlung! Ey chashmlar, qon ogʻlangiz,  
Ruhi voladin judo, nuri musaffodin judo!*

Mazkur sheʼrning birinchi bandi muallifning ichki iztiroblarini ochib berarkan keyingi oʻrinlarda shoir bevosita marhum maʼrifatparvarga murojaaaat qiladiki, bu ijodkor ifoda uslubining oʻziga xos uslubidir:

*Qalbi millatdur muqarrar turbai poking saning,  
To qiyomat hissi milliy oʻsdirur hoking saning,  
Ey buyuk ustoz, tuxmi ilmu fanu maʼrifat,  
Olami isloma sochdi fayz idroking saning.*

Gasprinskiy vafotiga yozilgan marsiyalardan ham hajman, ham mazmunan salmoqli boʻlgan sheʼrlardan biri bu shoir Tavallo Toshkandiyning “Marsiyai ustod

Ismoilbek janoblari” nomli muxammasidir. Ushbu she’r birinchi marta Gasprinskiy vafotidan biroz o’tib, “Sadoyi Turkiston” gazetasida e’lon qilingan. Uning dastlabki bandi falakdan zorlanish mazmunida bo’lib, ikkinchi bandida millatga murojaat orqali qalb kechinmalari bayon qilingan:

*Yig’la, millat, qon to’kib, bil, yig’lamakning vaqtidur,  
Ketti olam arsasidin deb fig’oningni oshur,  
Achchig’-achchig’ yig’lamak bas emdi bizlardin zarur,  
Qarshu oling siz ham-ey turib, ayo ahli qabur,  
Ko’zlaringiz ravshan o’lgay toki ko’rganda visol.*

Uning vafoti butun millatni yig’latadigan, yig’latganda ham qon yig’latadigan, shunday zot yer yuzidan ketdi, deb fig’on chekadigan motamdir. Bu motam uchun achchiq-achchiq yig’lamoq zarur, deya hisoblaydi shoir.

Marsiyaning bir o’rnida Gasprinskiyning millat oldidagi eng buyuk xizmatlaridan biri “Tarjumon”ning nashrini ham e’tirof etadi:

*O’ttiz olti yil chiqub nomi gazetang “Tarjumon”,  
Ayladi ahvoli millatni hamon bir-bir bayon,  
Ko’zga surtub o’qur erdi jumlai piru juvon,  
Noshiri ketdimi, deb ko’rgilki barcha musulmon...*

Marsiyaning so’nggi bandi ma’rifatparvar shoirning buyuk ustoziga buyuk ehtiromi, cheksiz muhabbati ifodasi sifatida baland pardada yakunlanadi. Har qanday o’lim Xudoning xohishi ekanligi, undan qutulmoqlikning imkonsizligini millatdoshlariga yana bir bor uqtiradi:

*Har qazoga sabr etingizkim Xudoning xohishi,  
Bormukin dunyoda qurtulg’on o’lumdan bir kishi,  
Favti uchun jumla islom ahli aylab nolishi,  
Ey Tavallo, sabr et emdi yo’qdir oning yonishi,  
Tarixi favti uchun “mag’fur bobo”, zuljalol.*

Tavalloning badiiy mahorati shundaki, u marsiya so’ngida mazmunga mos ravishda ta’rix san’atini qo’llaydi, hatto unga mos bo’lgan sifatni topadi. Moddai ta’rix sifatida qo’llangan “mag’fur bobo” (arabcha “gunohlari kechirilgan”,

“mag‘firat qilingan”, “gunohi afv etilgan”) birikmasining abjad hisobidagi yig‘indisi 1332 ni, ya’ni milodiy yil hisobi bilan 1914 yilni tashkil qiladi. Milliy uyg‘onish davri adabiyotida Ismoilbek Gasprinskiy vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyalarni bir umumiy mazmun o‘zaro bog‘lab tursa ham ular hajm va janr nuqtayi nazaridan turlicha. Xususan, ma’rifatparvar shoir Abdulla Avloniyning “Sadoyi Turkiston” gazetasida chop etilgan “Adibi shahid Ismoilbek ruhina” nomli marsiyasi haqida shunday fikrni aytish mumkin. Asar musaddas janrida yaratilgan bo‘lib, sakkiz banddan iborat. Avloniy musaddasi ham shu mavzuda yaratilgan boshqa asarlar singari Ismoilbekning ta’rifu tavsifi, uning buyuk xizmatlari e’tirofi bilan boshlanadi:

*Ey millatning bobosi, buyuk nuktadon eding,  
Millat holina dushunan tarjumon eding,  
Erding adibi komil, sohib lison eding,  
Islom olamina go‘zal mehribon eding,  
Millat ishini hab cholishub ishlagon eding,  
Haq rahmatina loyiqu jannatmakon eding.*

Bu o‘rinda muallif mazmun go‘zalligiga erishish uchun badiiyatdagi iyhom san’atidan o‘rinli va unumli foydalanadi. Uni ikki ma’noda ham qo‘llash mumkin: birinchidan, ikkinchi misradagi “tarjumon”(tarjimon) so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, millatning holini baralla ayta oladigan, uning dardlarini tushungan va tushuntira oladigan tarjimon eding, degan mazmunda talqin qilish mumkin. Ikkinchidan, Ismoilbek ijtimoiy faoliyati yuqori cho‘qqisi bo‘lgan “Tarjumon” gazetasi ham nazarda tutilmoqda.

Xalq tilida bir e’tirofga loyiq inson haqida gap ketganda, “bunday odam yuz yilda bir marta tug‘iladi” yoki “bunday odam qayta tug‘ilmaydi” degan ibora qo‘llanadi. Keyingi bandeda Avloniy ana shu ibratli fikrdan o‘rinli foydalanadi:

*Dunyoga sancha dohiyu donanda kelmagay,  
Faryodda sancha bulbuli xonanda kelmagay...*

Mazmuni: dunyoga sendek dohiyu bilimdon(donanda), faryod qilishda bulbuli xonanda... qayta kelmaydi.

Marsiyaning so‘nggi bandi an’anaviy tarzda abadiy dunyo bilan bog‘lanadi.

*Ayt hasratingni hazrati payambara,  
Chekg‘on g‘amingni so‘yla avhodi akbara,  
Bizdan shikoyat ayla borib ruhi sarvara,  
Bir nutq so‘yla bizdan o‘shal shohi rahbara,  
So‘z so‘ylamoqqa notiqu hab qahramon eding,  
Haq rahmatina loyiqu jannatmakon eding.*

Butun boshli ijodi faqat ma‘rifatparvarlik mavzusidagi she‘rlaridan iborat Abdulla Avloniy marsiyaning so‘ngida ham shu qarashiga sodiq qoladi. Musaddas-marsiyadagi har sakkiz bandning so‘nggi misrasi sifatida “*Haq rahmatina loyiqu jannatmakon eding*” jumlasini takror qo‘llanilib keladi. E‘tibor berilsa, marsiya davrning dolzarb masalasi – ma‘rifatparvarlik mazmunida. Shoir ma‘rifatparvarlik qarashlarining bayoni uchun katta hajmli janrni tanlar ekan, o‘z fikrlarini keng ko‘lamda tasvirlashni nazarda tutadi. Misraning takroriy qo‘llanilishi esa, ba‘zan ijodkorning millatdoshlari qoniga singib borayotgan faoliyatsizlik, johillik, taraqqiyga yuz tutganlardan ibrat olmaslik kabi illatlarni muolaja qilish istagi bilan, ba‘zan esa dinu millatning obodligi, ikki dunyo shodligini ilm-ma‘rifatda deb bilgan Ismoilbekning oltmish uch yillik qisqa umri davomida olib borgan faoliyatidan ibrat olishga da‘vati bilan bog‘liq.

Yuqorida keltirganimizdek, bu ikki buyuk shaxsning vafoti o‘sha davr ijodkorlarining ruhiyati ta‘sir qilgani holda ijodlarida ham o‘z aksini topgan. Ular bir-birlaridan ijodiy ta‘sirlangan holda turli janrlarda she‘rlar yozishdi. Bu bag‘ishlovlar ularning ijtimoiy qarashlarini o‘zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Jadid adabiyotida ijod qilgan shoirlarning aksariyati devonlar tuzishgan. Shuningdek, ularning she‘riy merosi o‘sha davrda tuzilgan bir qator bayozlarda o‘z aksini topgan. Buni nafaqat ijodkorlar, balki davrning har bir ma‘rifatli kishisi katta quvonch bilan kutib oldi. Quyida shunday bayozlardan biri xususida to‘xtalamiz.

O‘zbek bayozchilik an‘anasining mukammal namunasi hisoblangan “Armug‘oni Xislat” bayozi xotimasida ham Sayidahmad Vasliy Samarqandiy,

Mulla Shohislom Toshkandiy, Munis Toshkandiy, Shavkat Iskandariy, Husaynixon Maxdum Rizoiy Andijoniy, Haybatullaxo‘ja Xislat, Mulla Qo‘shoq Miskin Toshkandiy, Shavkat Iskandariy singari shoirlarning ixcham hajmdagi bir qancha ta’rixlari keltirilgan. Asosan g‘azal va qit‘a janrlarida ifodalangan bu ta’rixlar bayoz haqida birmuncha to‘liq ma’lumot beradi. Ma’lumki, bayozga kiritilgan barcha she’rlar mashhur hofiz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov repertuaridagi qo‘shiqlar matni bo‘lib, Mulla To‘ychi hofiz tashabbusi va homiyligi bilan shoir Xislat tomonidan tuzilib, har bir she’rning yuqorisiga savti va maqomlarining nomi yozilgan holda tartib berilgan. Buni ta’rixlarda keltirilgan quyidagi misollar ham tasdiqlaydi:

Sayidahmad Vasliy:

*Mulla To‘ychi va Mavlaviy Xislat,  
Qildi sarf tillo bayozi o‘qu.  
Xattidur xatti Mavlaviy Shavkat,  
Dardu g‘amg‘a shifo bayozi o‘qu.*

Mulla Shohislom Toshkandiy:

*...Chop qilmoqliqda behaddu hisob,  
Sarfi zarlarni qildi Mullo To‘ychixon.  
Har chamandan bir gul aylab intixob,  
Jam’ qildi nusxani Xislat eshon.  
Himmat aylab dastai tahrir uza,  
Terdi oni kotibi Shavkatnishon.*

Husaynixon Maxdum Rizoiy Andijoniy:

*Benihoyat aqchau oltunni sarf aylab munga,  
Yaxshi himmat qildi Mulla To‘ychi(yi) shirin xisol.  
Bog‘labon bel chop to‘g‘risida Xislat sidq ila,  
Bo‘yla qildi dahr aro bir gulsitoni bezavol.*

Shavkat Iskandariy:

*Mulla To‘ychi ko‘b zamonu oyu yillardin beri,  
Ming g‘azaldan birni olib qilg‘on erdi intixob.*

*Xo'ja Xislat oni chop etmoqg'a tun-kun say etib,  
Lahza orom olmayin jon birla ko'b qildi shitob.*

Keltirilgan ta'rixlarda "har bir xurufi durri xushob", "nodiri zamona", "Xuld bog'i gullaridek xandon", "ishq ahli gulistoni" singari ta'riflar ko'plab uchraydiki, bu o'z davrida katta madaniy hodisa bo'lgan bayozga berilgan munosib bahodir.

Ta'rixnavislar ta'rix moddasi uchun birikma va jumladan mahorat bilan foydalanganlar. Xususan, Miskinning quyidagi qit'asiga e'tibor qarataylik.

*Ajoyib xatlari marg'ub-u dilkash,  
Boqar ishq ahli munga guliston deb.  
Desang Miskin talab yuzi bilankim,  
Bo'lur ta'rix "bu zebo Armug'on" deb.*

Bu yerda ta'rix moddasi, shoirning ishorasiga ko'ra, (بو زیبا ارمغان) iborasi bo'lib, abjad hisobi bo'yicha uning umumiy miqdori 1320 ni tashkil etadi. Milodiy yil hisobi bo'yicha bu 1902 yilga to'g'ri keladi. Bu sana "Armug'oni Xislat"ning nashr yili emas. Shu bois, Miskinning ishorasiga ko'ra, "talab" so'zining yuzi (bosh harfi) bo'lgan "to" (ط)ning abjad hisobidagi miqdori 9 ni 1320 ga qo'shsak, 1329 hosil bo'ladi. Bu milodiy yilga aylantirilsa, 1911 yil sanasi kelib chiqadi. Bu "Armug'oni Xislat" bayozining nashr yilidir.

Mulla Shohislom Toshkandiyning ta'rix-g'azali yechimi g'am shunga o'xshash:

*G'aybdin hotif nido aylab dedi:  
Soli tab'i – "dah bu zebo armug'on".*

YA'ni ta'rix jumali "dah bu zebo armug'on" (دهبو زیبا ارمغان)ning qiymati 1329 ni tashkil etadi.

Ta'rix bitish qonun-qoidalariga ko'ra, biror kitobning nashri, bino qurilishi, biror shaxsning dunyoga kelishi munosabati bilan yozilgan bayozlarda ta'rix moddasi (jurnal) ko'pincha ko'zda tutilgan sanani bermaydi. Bunday hollarda shoirning ishorasiga ko'ra unga biror so'z yoki harf miqdori qo'shiladi. Xislat:

*Xislat ajoyib vah qildi ta'rix,  
Ziynat yuzidin – "ta'rixli oliy".*

Bu yerda “ta’rix oliy”(تاریخ عالی)ning 1322 ni tashkil etadi. Shoirning ishorasiga ko‘ra “ziynat”ning yuzi (bosh harfi) “ژ”ning qiymati 7 ni qo‘shilsa, 1329 sanasi kelib chiqadi.

Ikkinchi ta’rixda xuddi shunday hol kuzatiladi.

*Bas jumal birla qalamni yuzidin Xislat yozib,*

*Qildi bir xurshid yanglig‘ ta’rixin “raxshon ajab”.*

Ta’rix moddasi bo‘lgan “raxshon ajab” (رخش ان عجب)ning qiymati 1226 ga “jumal” yuzi “ج” (7) bilan “qalam”ning yuzi “ق” (100) qo‘shilsa, 1329 sanasi kelib chiqadi. Xuddi shunday ikki so‘zning bosh harflari ta’rix moddasiga qo‘shiladigan holat Munis Toshkandiy ta’rixida ham kuzatiladi:

*Lutfu zevar yuzi ila Munis,*

*Dedi: “dilkash bayozi ahsan chob”.*

Bunda ta’rix moddasi “dilkash bayozi ahsan chob” (دلکش بیاض احسن چاب) qiymati 1292ga “lutfu zevar”ning bosh harflari “ل”(30) “ژ”(7) yig‘indisi qo‘shilsa, 1329 hosil bo‘ladi.

Ba’zi hollarda “ta’rix moddasi”ning adadi ko‘zda tutilgan sanadan ko‘p chiqishi ham kuzatildi. Rizoiy Andijoniy qalamiga mansub ta’rix-qit’ada shunday holni ko‘rish mumkin:

*Ushbuning ta’rixini so‘rg‘onga bero‘yi jadal,*

*Fikr etib dedi Rizoiy: “vah bu mir‘ot al xayol”.*

Bu yerda ta’rix moddasi “vah bu mir‘ot al xayol”ning umumiy adadi 1332. Ta’rix-qit’aning bayozdagi matni so‘ngida esa ۱۳۲۹ (1329) sanasi qo‘yilgan. Demak, ta’rix moddasidan uch sonini ayirish lozim. Bu haqda esa shoir avvalgi misrada ishora berib, “jadal” so‘zining bosh harfi qiymatisiz (bero‘yi jadal) fikr et, - deydi. “ج”ning abjad hisobi bo‘yicha miqdori esa, “3”ga teng. Demak, ta’rix moddasidan uchni ayirilishi muammoni hal etadi.

Bayoz nashriga atab Shavkat Iskandariy (Sidqiy Xondayliqiy) ham ikki ta’rix bitgan bo‘lib, ularning biri forscha, biri o‘zbekcha. E’tiborlisi, Shavkatning har ikki ta’rixida ham ta’rix moddalari hech bir o‘zgarishsiz nashr sanasini beradi.

Forsiy gʻazaldagi “margʻub tab” (مرغوب طبع) birikmasining adadi 1329 boʻlsa, ikkinchi gʻazalda quyidagicha taʼrix tushiradi:

*Ushbu Xislat armugʻonin soli taʼrixi uchun,*

*Umdai tugʻro – debon aql etti Shavkatgʻa xitob.*

Bu yerda “Umdai tugʻro” (عمده طغرا) ning adadi 1329ga teng.

Bayozga bitilgan taʼrixlarning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda taʼrix moddasi uchun tanlangan soʻzlar maʼnoda bayozning taʼrifi hamdir. Xususan, “bu dilkusho bayoz”, “bu zebo armugʻon”, “dilkash bayoz ahsanast”, “mirotu-l-xayol”(xayol oynasi), “raxshon ajab”(ajoyib tovlanuvchi), “margʻub tab”(sevimli nashr), “um dai tugʻro” kabilar ijodkorlarning bayozga bergan munosib baholari hamdir.

Eʼtibor berilsa, keltirilgan tahlillarda ijodkorlar bayoz nashrini yakdillik bilan quvvatlaganlar. Buni ijoddagi oʻzaro adabiy taʼsir deb baholashimiz mumkin. Har bir sheʼriy asarning asosan, taʼrix sanʼati vositasida nashr sanasi, uning noshiri toʻgʻrisidagi fikrlari oʻsha davr sheʼriyatida shakllangan adabiy anʼananing oʻziga xos koʻrinishi edi.

## **II BOB. LIRIK JANRLAR BILAN BOG‘LIQ ADABIY AN‘ANALAR VA IJODIY TA‘SIR MASALASI**

### **2.1. G‘AZALNAVISLIK AN‘ANASI**

O‘tgan asrning o‘rtalarida maydonga chiqqan jadid adabiyoti milliy madaniyat tarixida “Qutadg‘u bilig”dan boshlab to XIX asr oxiri XX asr boshlarigacha davom etgan adabiyotdan so‘ng yangi bir davrni boshlab berdi. Bu davr milliy adabiyotimizda proza, drama vujudga kelgan bo‘lsa-da, she‘riyat, baribir yetakchi janr bo‘lib qolaverdi. Jadid adabiyoti – an‘ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir, deydigan bo‘lsak, eskilik va yangilik aynan she‘riyatda yuzma-yuz keldi, yangilik eskilik ichidan tug‘ilib keldi.

XX asr boshlari she‘riyatidagi yangilanish, eng avvalo, mazmunda ko‘zga tashlanadi. Jadid adabiyoti – mazmunan butunlay yangi adabiyot bo‘ldi. Mazmunning bu yangiligi mavzuning o‘zgarganligi, kengayganligi; adabiyotni tashviqot vositasi sifatida tushunish, real hayotga yaqinlashish; an‘anaviy obrazlar mazmunining o‘zgarishi; umuman obrazlar sistemasining kengayishi; xalq jonli tiliga yaqinlashish, soddalanish kabilar bilan xarakterlanadi. Ammo bu yangi mazmun ancha vaqtgacha eski shakllarda – aruz va an‘anaviy janrlarda ifoda etildi. Jadid shoirlari to 20-yillarga qadar ayrim sərbast, xalq qo‘shiqlari yo‘lida yozilgan she‘rlarni istisno qilganda, asosan, g‘azal, masnaviy, ruboiy, qit‘a, tarje‘band, tarkibband, musammatsingari an‘anaviy aruziy janrlardan foydalandilar. Yangilangan mazmun bu janrlarning shakliy jihatlarini ham asta-sekinlik bilan o‘zgartira boshladi, boshqacha aytganda, aynan muayyan adibiy hodisaning ichida shu adibiy hodisaning inkorini tayyorlagan jarayonlar boshlandi.

G‘azal nazariyasi, uning muayyan tarixiy davrlardagi, muayyan ijodkorlar adabiy merosidagi o‘rni, o‘ziga xosligi adabiyotshunosligimizda atroflicha o‘rganilgan<sup>17</sup>. Sharq adabiyotida janrlar qancha rang-barang bo‘lmasin, aynan g‘azal janri keng tarqalgan. Hajmda nisbatan, vaznda mutlaq erkinligi, mavzu qamrovining kengligi – xullas, qisqa muddatli his-tuyg‘ularning badiiy ifodasiga asoslangan lirik asar uchun har tomsonlama qulaylik g‘azalning keng tarqalishiga

<sup>17</sup> Носиров О. Ўзбек адабиётида г‘азал. –Т.:1972; Ишоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Т.: Фан, 1980. ва бошқалар.

asos bo'lgan. XX boshlari adabiyotimizning g'azal eng keng tarqalgan so'nggi davri bo'lib qoldi. Jadid g'azaliyoti o'zining mazmun-mundariyasi, kompozitsion qurilmasi, badiiy tasviriy vositalari bilan o'zbek g'azalchiligi tarixida alohida bosqichni tashkil qiladi. Jadid she'riyatini, jumladan, g'azallarni mazmun-mundarijasiga ko'ra quyidagi ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Ishqiy g'azallar 2. Ijtimoiy va ma'rifiy g'azallar

Ta'kidlash kerakki, jadid shoirlarining deyarli barchasi o'z ijodini ishqiy g'azallar yozishdan boshladilar. Jadidchilik hali yaxlit ta'limot sifatida shakllanmagan va bu shoirlar jadidchilik yo'lini tutmagan XIX asr oxiri XX asr boshlarida ular ijodining asosini ishqiy she'rlar tashkil qilganligi tabiiy bir hol edi. Ishqiy mavzu jadid shoirlari ijodining asosan dastlabki bosqichigagina xos bo'lib qoldi. Hamzaning oshiqona she'rlari "Devoni Nihoniy"dangina o'rin oldi; Siddiqiy-ajziy "jadid bo'lushluk ila" ishqiy she'rlarini yondirib tashladi; abdulla Avloniy ijodida birorta ham ishqiy she'r yo'q; Sidqiy Xondayliqiy poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy-siyosiy she'rlar tashkil etadi

Jadid lirikasida Muqimiy, Furqat singari shoirlar ijodining izchil davomi sifatida xalq jonli tiliga, xalqona ifoda timsollarga, ishqiy kechinmalar bobida romantikadan real hayotga bir qadar yaqinlashgani bilan harakterlanadi. Kamiyning quyidagi g'azalida visolning farahbaxsh lahzalari qalamga olingan:

*Mahvasho, bir-bir bosib qilgan xiromingdan akang,  
Ko'z uchi birlan boqib bergan salomingdan akang.  
Yuz savolimning biriga xud-bexud bermay javob,  
G'ayrdin dashnom ila bergan payomingdan akang.  
Ruh topgay o'lgan oshiqlar labing alfozidin,  
Menga hamso'yla Masihoso kalomingdan akang.  
Zulfunga qayd o'ldi ko'ngul donai xoling ko'rib,  
Ishq eli saydiga qurgan bo'yla domingdan akang.  
Aytmayin rozi dilimni, chehrai zardim ko'rib,  
Holimi bilgan sani fahmu maromingdan akang.  
Xotirin shod aylabon dushmanlarimni lutf ila,*

*Manga qilgan noz ila javru davomingdan akang.  
Erta-kech viridi zabonim bo'ldi isming negakim,  
Boldin totlig' erur komimga nomingdan akang.  
Nolasi yetmas qulog'ingga Kamiy bechorani,  
Bo'lgan istig'noni avjida maqomingdan akang.*

Bu g'azal muayyan manzara yoxud holat tasvirining izchilligiga putur yetganligiga qaramasdan, o'ta milliyligi bilan diqqatni tortadi. Unda chinakam sharq go'zalining visol onlaridagi hayo va ibosining ham (1-2-3-baytlar), uning go'zalligi ustiga oshiqni yanada romu lol etguvchi fahmu farosatining ham (5-bayt), yana an'anaviy ma'shuqaga xos nozu zulmning ham(4-6-8-baytlar) guvohi bo'lamiz. Ayna "akang" radifi esa xalqonalikni, milliylikni, psixologik tasvirni avj nuqtaga ko'targan.

Shunday xalqonaligi bilan diltortar yana bir g'azal Sidqiy-Xondayliqiy tomonidan yaratilgan:

*Hujrama keldi ul sanam axshom aro tasir-tusur,  
Tizba-tiz o'lturub dedi: so'zlas'hali chag'ir-chug'ur.  
Noz sharobidan sunib ayladi sargaron mani,  
Bilmay o'zum quchib edim, qildi beli qasir-qusur.  
Bo'ynuma tashlabon qo'lin necha qilib qiziqchilik,  
Ikkalamiz qotib kulib, qilduk ajab vaqir-vuqur.  
Bo'yla ko'rub nishotimiz, toqat etib chidolmayin,  
Qurbaqadek raqib eli ayladilar baqir-buqur.  
Zuhra falak uzra ko'rub rashk ila birga ayshimiz,  
Sozin etib naqoradek choldi urib tafir-tufur.  
O'yla sipand o'lub dilim, majmari ishqiga tushub,  
Har sori sachrab, ohkim, qildi tutab chatir-chutur.  
Subh chog'iga tegur ululfat o'lub maning bila,  
Munqlashibon sekin-sekin, qilmadi ko'b vag'ur-vug'ur.  
Domi firoqiga solib, erta bilan jafo qilib,  
Silkib etak ush(l)atmayin ketti qochib shatir-shutur.*

*Sidqiyi dilshikasta, dod etma falakni javridin,*

*Garchi boshingga yog 'sa ham hajr toshi shaqir-shuqur.*

Ishqiy munosabatlari asosan dramatik, ba'zan hatto tragik talqin qilingan yuzlab g'azallar silsilasida visol shavqidan so'z ochuvchi bunday she'rlar juda ozchilikni tashkil qiladi. Sidqiy-Xundayliqiy g'azali jiddiyat va hazilning almashinib kelganligi bilan ruhi yengil, qofiyalarning taqlid so'zlardan tanlanganligi realistik tasvir kuchini oshirgan. Ma'shuqaga nisbatan qo'llangantaqlid so'zlarda uning tashqi portreti (qildi beli qasir-qusur), fe'l-atvori (tasir-tusur, shatir-shutur), oshiqqa munosabati (vag'ur-vug'ur) juda samimiy tarzda o'z ifodasini topgan.

Xuddi shunday g'azal Hamzada ham bor:

*Keldi pari ot o'ynatib tor ko'chadin tapir-turur,*

*Qahr ila ust-ustiga qamchi solib tasir-tusur, -*

matla'si bilan boshlanuvchi bu she'r vazni va radifi bilan Sidqiy-Xundayliqiy g'azalini eslatsa-da, bu ikki g'azal nafaqat qalamga olingan manzara, holat nuqtai nazaridan, balki g'azalning ichki qurilmasi, psixologik tasvir usuli, lirik qahramon nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Sidqiy-Xundayliqiy g'azalidagi mantiqiy izchillik, dalillash ruhining ustivorligi, milliy ruh Hamza she'riga xos emas.

Kamiy va Sidqiy-Xundayliqiyning tahlil etilgan ikki g'azali ham faqatgina visol shavqidan bahs etganligi uchun emas, balki talqin va tasvir yo'nalishi bilan jadid ishqiy g'azaliyotida yangicha ruh paydo qilgan. Shoir CHO'lpon yozganidek, "bir xil, bir xil" holat, obraz, tasvir silsilasida bu kabi g'azallar o'ziga xos yangicha uslub bo'ldi.

Bugungi adabiyotshunoslikda g'azallarning hajmi haqida turlicha fikrlar yuradi. Asosan 7 va 9 baytli g'azallar ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo jadid shoirlari g'azallari ichida ko'pbaytli g'azallar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Bunday ko'pbaytlilik asosan ijtimoiy va ma'rifiy g'azallar doirasidadir.

Ma'rifiy g'azallar maktab, maorif, ilm-fan, taraqqiyotning foydasini ko'rsatishga qaratilganligi, ma'rifatga da'vat mazmunida bo'lganligi sababli bunday she'rlarda tanlab olingan narsa-hodisa turli tomonlardan, turli xil tashbeh-

tamsillar vositasidatari fu tavsif etiladi, uning o'nlab foydali jihatlari qayd etiladi. Ma'rifiy she'rlar, aytish mumkinki, targ'ib maqsadida, muayyan g'oyani o'zgalar ongiga yetkazish maqsadida yozilgan.

Abdulla Avloniyning "Maorif nadur" g'azali 16 baytdan iborat. Bundan tashqari, shoirning "Maktab" g'azali ham 17 bayt, "Muxotabim qalam" g'azali 13 bayt, "Johil na bilur" g'azali 12 bayt, " Savdoyi bulbul" – 13 bayt.

Hamzaning "O'quv" radifli g'azali esa 15 baytdan iborat. Bu g'azalda dastlab o'quvning foydalari haqida so'z boradi. Shoirning fikricha, insonni inson qilgan ham, tabiat olamini inson manfaatlariga bo'ysundirgan ha, bu dunyoda uning insonday yashashini, u dunyoda mangulik saodatini ta'minlaydiganham o'quvdir. O'quvning qator foydalarisanab-izohlab berilgach, muallif da'vatga o'tadi:

*Bu uzun g'aflat yuqudan sanga yo'qdur foyda,  
Nisfi shablardan o'zingni aylabonb bedor o'quv.  
Gar dilingni o'ylagan orzuga yetmoq istasang,  
Naqdi umring qilmagil behudaga bekor o'quv.  
Qo'y o'yun, sayru tamoshoni, g'animat yoshliging,  
Shum fe'llardin o'zingni aylagil bezor o'quv.  
Ey o'g'ul, dunyoga bo'lmoq istasang olijanob,  
O'qug'il maaktab kelib, zinhor o'quv, ming bor o'quv.*

Shuningdek, Hamzaning ma'rifat targ'ibiga bag'ishlangan "Kitob" she'ri – 15 bayt, "qalam" she'ri – 14 bayt, "Ilm" va "Maktab" she'rlari – 13 bayt bo'lib, bu she'rlarda ham o'rtaga qo'yilgan muammoning keng, batafsil talqiniga duch kelamiz.

Vatanning, millatning, jamiyatning mavjud ahvolini tanqid qilishga qaratilgan ijtimoiy g'azallar ham talqinning mufassalligi bilan bog'liq ravishda hajmning nisbatan kattaligi bilan xarakterlanadi. Jadid shoirlari adabiy merosidabunday she'rlar ham ko'p.

Tanqidiy ruhdagi ijtimoiy g'azallarda XX asr boshidayashagan shoirlar jamiyat hayotining jamiyki sohalaridagi qoloqlikni ochishga, taraqqiyotga xalaqit

berayotgan qusurlarin, hatto millat mentalitetidagi zamon shiddatiga teskari bo‘lgan kamchiliklarni ko‘rsatib berishga urindilar. Jahon taraqqiyoti tamoyillarini anglab yetgan mutafakkir, ilg‘or fikrli ziyoli sifatida nomaqbul deb hisoblaganlaribiror bir narsa-hodisani nazardan chetda qoldirmadilar. Ana shu holat g‘azal hajmining kengayishiga saba bo‘lganomillardan biri bo‘ldi.

Milliy uyg‘onish davri adabiyotida yaratilgan aksariyat g‘azallarda qo‘llangan badiiy san’atlarning ham bir-biriga yaqinligini ko‘rishimiz mumkin.

Shoirlar ijodida g‘azalning boshqa bir qator poetik shakllardagi turlari uchraydi. Masalan, shulardan biri – **muwashshah-g‘azal**. “Muvashshah” arabcha so‘z bo‘lib, lug‘atda “bog‘lamoq, ziynatlamog‘” degan ma‘nolarni anglatadi. Ma‘lum bo‘ladiki, Kamiy “Alixon” ismiga yozgan muwashshahining maqtaida “*Nomi xo‘bing birla ziynat topdi nazmi bu Kamiy*” deganda uning lug‘aviy ma‘nosiga ham ishora qilgan. Adabiy istilohda esa muwashshah kishi ismining har bir harfi muayyan misralarning ilk harflari bo‘lib kelgan she‘riy shaklni bildiradi. Bu she‘riy shakl mumtoz poetikaning g‘azal yoki musammat ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin. Eng ko‘p uchraydigani g‘azal shaklida, albatta. O‘zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lgan muwashshah bitish an‘anasi Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Kamiy singari shoirlar ijodida, ayniqsa, alohida o‘rin tutgani ma‘lum. Shayxzoda bunga munosabat bildirib: “Lirikada muwashshah janri<sup>18</sup> (Yevropa adabiyotlarida akrostix) o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning II yarmida ko‘p avj olib ketib, adabiyot ahli o‘rtasida rasm bo‘lib qolgan edi. Hatto shu darajadagi, shoirlik va nazmchilik hunari muwashshahchilikdagi mahorat bilan o‘lchanadigan bo‘lib qolgan edi<sup>19</sup>”, - deb yozadi. Muvashshah-g‘azallarda kishi ismi ikki xil usul bilan hosil qilinadi: 1) g‘azal baytlaridagi toq misralarning birinchi harflari olinadi; 2) g‘azaldagi qofiyadosh misralarning birinchi harflari olinadi. Muvashshahchilikda asosan, birinchi turdagi shakl keng tarqalgan bo‘lib, aksariyat muwashshahlar ham ayni shu shakl asosida qurilgan. Muvashshahda shoir kishi ismining kelib chiqishiga ko‘p hollarda ochiq ishora qilmaydi. Ba‘zi hollarda

---

<sup>18</sup> Шайхзода мувашшахни негадир жанр деб атайди. Эътибор берилса, мувашшах турли лирик жанрлар таркибида келувчи поэтик шакл эканлиги кўрилади.

<sup>19</sup> Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б. 91-92.

esa gʻazalning muvashshahligiga dalolat qiladigan biror unsur keltiriladi. Buni Miskin muvashshah-gʻazallaridan birining soʻnggi baytida koʻramiz:

*Nozuk otini Miskin har band nazm uzra,  
Jo qildi nuktadongʻa, oson etaymu etmay.*

Gʻazal baytlarining bosh harflaridan “Xolmuhammadxon” ismini oʻqiymiz.

Muvashshahlar, asosan, sof ishqiy mavzuga bagʻishlanadi. Garchi ularda maʼshuqaning taʼrifu tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan boʻladi. Xoʻsh, unda muvashshahdagi kishi ismi bilan unda kuylangan ishqiy mazmunning qanday aloqasi bor? Bizningcha, bu borada Maqsud Shayxzoda bildirgan fikr juda oʻrinli: “...muvashshah kimning nomiga bogʻlangan boʻlsa, oʻsha gʻazalda taʼriflangan obraz ham aynan mazkur kishining oʻzidir, deb oʻylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu gʻazalning kimga bagʻishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor bus-butun boshqa bir kishi boʻlishi mumkin”<sup>20</sup>.

Darhaqiqat, muvashshahlarning mazmuniga eʼtibor qilsak, yuqoridagi fikrning toʻgʻriligiga amin boʻlamiz. Masalan, Xislatning “Oxundjon” ismiga muvashshah-gʻazalda:

*Oydek toʻlubdur, jono, yuzingiz,  
Fah, jonim olgʻon fatton koʻzingiz.*

Yoki

Miskinning “Omilxon” ismiga bogʻlangan muvashshah-gʻazalda:

*Ishqingni, ey parivash, ifsho qilaymu qilmay,  
Faryod urub gʻamingdin gʻavgʻo qilaymu qilmay.*

kabi baytlar keladi. Tabiiyki, baytlarda maʼshuqa tasviri haqida gap boryapti. Sheʼr mazmunining Oxundjon yoki Omilxonga aloqasi yoʻq.

Umuman, muvashshahlar asosan tirik doʻst yoki zamondoshlarning nomiga bitilgan. Buni oʻsha davrdagi turli ijodkorlarda bir xil nomlarga muvashshah bogʻlanganida koʻramiz. Xususan, Kamiy, Mirzo Shoshiy, Xislat, Miskin, Haziniy kabi ijodkorlarning Xolmuhammadxon, Yusufxon, Alixon, Sultonxon, Omilxon,

---

<sup>20</sup> Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б. 92.

Qo‘ldoshxon nomiga bog‘lagan muvashshahlari bunga misoldir. Bu hol ismlari muvashshah qilingan kishilarning milliy uyg‘onish davri ijodiy davrasi uchun yaqin shaxslar bo‘lgani haqidagi xulosaga olib keladi.

Jadid shoirlari ijodida uchraydigan g‘azal turlaridan yana biri – **g‘azali musajja’**. Musajja’ saj’li, ya’ni ichki qofiyali degan ma’noni anglatib, mumtoz adabiyotdagi qofiya bilan bog‘liq badiiy san’at. G‘azali musajja’da baytlardagi misralar to‘rt bo‘lakka teng bo‘linib, oldingi uch bo‘lak mustaqil holda qofiyalanadi, to‘rtinchi bo‘lak esa she’rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh so‘z bilan tugallanadi. Miskin g‘azaliyotida bu shaklda yozilgan ikki g‘azal mavjud bo‘lib, ularning matla’lari musajja’da emas, oddiy usulda bitilgan. Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida “musajja’ g‘azallarning matla’ida saj’ kamroq rioyat qilibturlar. Agar rioyat qilinsa yaxshiroq bo‘lgusidur”, -deydi. Shoir Miskinning quyidagi g‘azali musajja’ usulida bitilgan:

*Ishqingga jonu dil birla bo‘ldim giriftor, aylanay,  
Bu yo‘ldin aslo yonmazam, ossang agar dor, aylanay.*

*La‘li labing yodida **bil**, xunoba yutdim oyu **yil**,  
Arz aylamakka qoni **til**, tushganda bozor, aylanay.*

*Yolg‘uzlig‘ing foylab **mudom**, bo‘ldi uka, umrum **tamom**,  
Ko‘rsam debon har subhu **shom**, bo‘ldi ko‘zim chor, aylanay.*

*Xo‘blar sanga **farmonravo**, ey mahvashi nozik **ado**,  
Man nega qilmay jon **fido**, barcha xaridor, aylanay.*

*Ikki qoshing aylab **kamon**, otmoqg‘a chog‘lab har **zamon**,  
Qilsang agar ko‘ksim **nishon**, bo‘lmaymu tayyor, aylanay.*

*Noming o‘qib yoshu **qari**, vaslingg‘a bo‘lmish **mushtari(y)**,  
Bir man emas, huru **pari** bo‘lsamki der, yor, aylanay.*

*Har bir so‘zing, ey **nozanim**, bu komima boldin **shirin**,*

*Miskinu shoh der, ofarin, la'ling shakarbor, aylanay.*

E'tibor qilinsa, g'azal matla'si Bobur ta'kidlaganidek, musajja' emas. Bu holni bu davrda yaratilgan deyarli barcha musajja' g'azallarda ko'rishimiz mumkin.

Ushbu g'azallarda qo'llangan musajja' usuli ularning ohangdorligini g'oyatda kuchaytirib, unga ayricha joziba va latofat bag'ishlagan.

Bu davr shoirlari nazmiy merosida **tazmin** yo'lida yozilgan g'azal ham alohida o'rin tutadi. Tazmin (ustoz maqomidagi yoki zamondosh) o'zga shoir ijodidan bir misra yoki baytni olib, uning zaminida vazni va mazmunini saqlagan holda yangi she'r ijod etish ekani ma'lum. Atoullloh Husayniy tazminga: "lug'atta bir nimani bir nima orasiga qo'ymoqdur" deb ta'rif beradi<sup>21</sup>. Tazmindagi asosga o'xshashlik ham mazmun, ham shaklda bo'ladi. Aniqroq aytganda, mashhur asarga bitilgan tazmin asosga mavzu, g'oya, obraz, tasviriy vositalar, qofiya, radif, vazn, uslub jihatdan o'xshash bo'ladi. Miskinning "etaymu etmay" radifli g'azalining birinchi bayti quyidagicha:

*Husningni, ey parivash, e'lon etaymu etmay?*

*Yo dil uyida saqlab, pinhon etaymu etmay?-*

Miskinning ushbu bayt bilan boshlanuvchi g'azaliga Kamiy qalamiga mansub g'azallardin birining birinchi misrasi asos bo'lganini ko'rish mumkin:

*Husningni, ey parivash, e'lon etaymu etmay?*

*Yuzingga el ko'zini hayron etaymu etmay?*

Miskin ustozlari Kamiyning g'azalidan mazkur misrani olar ekan, g'azalning mavzusi, g'oyasi, vazni va uslubini saqlagan holda yangi asar yarata olgan. Ushbu she'r g'azali tazmin bo'lish bilan birga Xolmuhammadxon ismiga muvashshah hamdir. E'tiborlisi shundaki, tazminga asos bo'lgan Kamiy g'azali ham Husaynbek ismiga muvashshah qilingan. Demak, Miskin nafaqat g'azalga tazmin bog'lagan, balki asos bo'lgan g'azaldagi badiiy unisurni ham saqlagan.

Bundan tashqari, Haziniyning toshkentlik Kamiy, Miskin, Sidqiy-Xundayliqiy va boshqa ko'plab shoirlar muxammas bog'lagan mashhur "YO hayot

<sup>21</sup> Нусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 250.

an-nabiy” radifli g‘azali o‘ziga tazmin namunasidir. Ta’kidlash lozimki, jadid she’riyati bir xil radifli so‘zlar ko‘plab uchraydi. Xususan, bir qator shoirlar tomonidan “aylansun”, “aylanay”, “qil”, “etdingu ketting”, “xush keldingiz” “bir kelib ket” kabi so‘z va jumalarning radif sifatida tanlanishi buning dalilidir.

Munavvarqorining “Orzu” nomli to‘rtligi ham an’anaviy usulda yozilgan:

*Ko‘klamning iskab sunbulin,  
uzgim kelar nozik gulin,  
Tovushi yoqimli bulbulin,  
bir lahza sayratgim kelur.  
Ko‘rgim kelar gulbog‘ini,  
yozgim kelar dil dog‘ini,  
Vasling-la ko‘klam chog‘ini,  
bir-birga o‘xshatgim kelur.<sup>22</sup>*

Bahorni har bir inson o‘zgacha kayfiyat bilan kutib oladi. Qushlarning sayrashi-yu turfa, betakror gullarning ochilishi kishi ruhiyatiga ko‘tarinkilik ham ulashadi. Lirik qahramon ham ko‘klamga oshiq, uni sog‘ingan. Aslida ko‘klam yangilanish, hurlik tushunchalarini ifodalagan. She’r so‘ngida u ma’shuqasi – hurlikning visolini tabiatning ana shu mo‘jiza fasliga qiyoslaydiki, estetik mukammallik ham shu qadar yuksakdir.

So‘fizoda g‘azallaridagi malak esa qariyb mumtoz adabiyotda kuylangan yetuk mahbuba obraziga teng. Masalan, “O‘pay” radifli g‘azalida shoir:

*Kel yaqin, oromi jon, ruxsori olingdan o‘pay,  
Gul yuzing ustiga qo‘ngan erka xolingdan o‘pay...  
Tishlaring durdonasi yanglig‘ takallum chog‘ida.  
Har zamon la’li labing marjon misolidan o‘pay, –*

singari go‘zalning yuzini gulga, lablarini la’lga o‘xshatib, salafar an’anasini davom ettiradi.

---

<sup>22</sup> Мунавварқори Абдирашидхонов. Хотираларимдан. (Жадидчилик тарихидан лаваҳлар). – Т.: Шарқ, 2001, Б.97

An'anaviy adabiyotda nafaqat go'zal malaklar siymosi, balki sharqona falsafiy qarashlar ham mavjud bo'lib, bu millat bosib o'tgan tarixiy yo'l mobaynida o'zlashtirgan tajribalarining aks-sadosidir. Bu taomil keyingi davrlar adabiyotiga ham ko'chdi, yangi bo'yoqlarda qayta jonlantirildi. Masalan, Avloniy ijodida ana shunday boy mumtoz adabiyotdan ilhomlangan nuqtalar juda ko'p. Uning komil inson tarbiyasiga qaratilgan "Bilmoq, o'rganmoq ila olmoq kerakdur yaxshi ot" misralari Navoiyning "Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot" fikriga ergashib yozilgandek go'yo. Bundan tashqari "Qo'rqoq" hikoyatida keltirilgan ushbu:

*Tarbiyat qilg'on bilan noasl odam bo'lmagay,  
Ifni yuz alvon ila rang etsalar bo'lmas ifak,<sup>23</sup> -*

bayti ham Navoiyning mashhur qit'asidagi

*Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,  
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami, -*

baytiga juda o'xshab ketadi.

Umuman, jadid shoirlari g'azaliyotida o'zaro adabiy ta'sir va davrning mavjud an'analariga o'z munosabatini bildirish keng tarqalgan bo'lib, bu – davr adabiyotining o'ziga xos xususiyati edi.

---

<sup>23</sup> Авлоний. Танланган асарлар. II жилдлик. II жилд. – Т.: Маънавият, 1998, Б30.

## 2.2. MUSAMMAT TURKUMI BILAN BOG‘LIQ AN‘ANALAR

“Musammat arabcha “tasmit” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi marvarid donalarini ipga tizmoq, tasmitlamoq demakdir”<sup>24</sup>. Istilohda esa har bandi uch misradan o‘n misragacha bo‘lgan aruz vaznida yozilgan she‘r nazarda tutiladi. Agar banddagi misralar soni uchta bo‘lsa - musallas, to‘rtta bo‘lsa - murabba‘, beshta bo‘lsa - muxammas, oltita bo‘lsa - musaddas, yettita bo‘lsa - musabba‘, sakkizta bo‘lsa - musamman, to‘qqizta bo‘lsa - mutassa‘, o‘nta bo‘lsa - muashshar deyiladi. Ularning qofiyalanish tizimi g‘azalnikiga o‘xshaydi. O‘xshashligi shundaki, birinchi banddagi misralar o‘zaro va keyingi bandlarning oxirgi misralari birinchi bandga qofiyadosh bo‘lib keladi. Birgina tarje‘band-musammatlar bundan mustasno. Chunki tarje‘bandda har band so‘ngida qofiyadosh ikki misra takrorlanib keladi. Demak, bunda birinchi bandga qofiyalanuvchi misralar soni ham ikkita bo‘ladi. Musammatlarda ham, g‘azaldagi singari, shoir taxallusi so‘nggi bandda ishlatiladi.

Jadid shoirlari ijodida muxammas va musaddaslar ko‘proq, murabba‘ va musammanlar qisman tarqalgan. Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” birinchi juzidan o‘rin olgan. 9 she‘rning uch tasi muxammas, bittasi musaddasdir; ikkinchi juzidagi 29 ta she‘rning 7 tasi musaddas, 4 tasi muxammas, 2 tasi musamman, 2 tasi murabba‘dir. Tavalloning “Ravnaq ul-islom” majmuasidagi jami 68 ta she‘rning 4 tasi muxammas, bitta muxammas-marsiya, 8 tasi masaddas, bitta murabba‘dir. Kamiyning «Dilni obod aylangiz» to‘plamidagi she‘rlarning 3 tasi murabba‘, 19 tasi muxammas, 4 tasi masaddasdir. Sidqiy-Xondayliqiy ijodida ham musammatlar salmoqli o‘rin tutadi. “Devoni Nihoniy”da esa 19 ta muxammas mavjud. Murabba‘ garchi musammatlar sirasiga kirsada, o‘z ibtidosini xalq og‘zaki ijodidan olgan. Chunki “Devoni lug‘otit turk”dagi to‘rtliklar, folklor qo‘shiqlari shundan dalolat beradi. Adabiyotimiz tarixida murabba‘ni yuqori bosqichga ko‘targan shoir XIX asrda Muqimiy bo‘ldi. Murabbalar kam ruknli vaznlarda, o‘ynoqi ohanglarda, soddaroq uslublarda yaratilgan. Jadid shoirlari tomonidan yaratilgan murabba‘lar ham ana shu

---

<sup>24</sup> Орзибеков Р. Ўзбек классик поэзиясида г‘азал ва мусаммат. 71-б.

xususiyatlari bilan musammatning boshqa turlaridan ajralib turadi. Jadid murabba'lari asosan, ishqiy mavzularda yaratildi. Bu ishqiy murabba'lar boshqa janrdagi she'rlarga nisbatan sodda uslubdaligi, an'anaviy ishqiy motivlarning ustivorligi bilan xarakterlanadi. Bu –sog'inch, visol ilinji, yorning beparvoligi, zulmkorligi, bevafoligi, ag'yorga iltifotliligi motivlaridir.

*Ey g'unchai lab, yuzing lolai humro,*

*Iloji yo'q qona bo'yanmay aslo,*

*Ilking bila oyog'ingga nigoro,*

*Cekkan hinolaring yodima tushdi, -*

deb boshlanuvchi murabba'da Kamiy mukammal lirik lavha yaratadi. "...yodimga tushdi" takror misrasi baxtli muhabbat lahzalaridan darak beradi. Shoir asosan "qoshi yo", "pari jamol", "shahdu shakar guftor", "gulgun qabo", "qon yig'lamoq", "g'uncha lab", "o'qdek qading bukildi", "yo'lga ko'z yoshdan suv urmoq" kabi an'anaviy obrazlar, ifodalardan foydalangan bo'lsa-da, murabba' xalqona ohangi va samimiy tasvir usuli bilan maroqlidir. Hamza ijodida Nisoriy Namangoniy g'azaliga bog'langan murabba' mavjud. Odatda adabiyotda g'azalga muxammas bog'lash an'anasi mavjud bo'lib, murabba' bog'lash kamdan kam uchraydigan hodisa. Masalan, Maxtumquli ijodida Navoiy g'azallariga bog'langan murabba'lar mavjudligi aytib o'tilgan.

Ishqiy mavzudagi murabba'lar shoir Miskin ijodida ham uchraydi. Ularning ba'zilar mashhur qo'shiqlarga aylangan. Masalan,

*Ko'rdim xatingiz, zebo sanamlar,*

*Qatlinga erkan yozgan raqamlar,*

*Berahm aylab bizga sitamlar,*

*Rahm aylamaysiz, qoshi qalamlar,-*

bandi bilan boshlanuvchi murabba'sida Miskin har band so'ngida "Rahm aylamaysiz, qoshi qalamlar" takror-misrasini qo'llab, oshiqning bechora holini o'tkir bo'yoqlarda tasvirlaydi. Shoir asosan, "ma'shuqaning oshiqni betig' so'yishi", "soqiy bo'lib ishq mayini quyishi" singari poetik tasvirlardan, "dilxasta",

“bulbul”, “g‘am domi” kabi an‘anaviy obrazlardan foydalangan bo‘lsa-da, murabba‘ xalqona ohangi, samimiy ifoda usuli bilan xarakterlidir.

Kamiy esa o‘zining ma‘rifatparvarlik qarashlarini bir murabbasida uni “Murabba‘i dar ta‘rifi maktab” deb nomlaydi.

Musammat turkumi ichida eng keng tarqalgani bu – muxammaslardir. Muxammaslar asosan ikki xil: taxmis (biror shoir g‘azaliga bog‘langan muxammas) va tab‘i xud muxammas (mustaqil yozilgan muxammas). Jadid shoirlari ijodida mazkur janrning har ikki ko‘irinishini uchratish mumkin. Kamiy ijodida Fuzuliy, Huvaydo, Haziniy, Muqimiy, Roqiy, Kotib, Uzlat, Mehriy g‘azallariga; Tavallo ijodida Navoiy, Yusuf Saryomiy, Vasliy Samarqandiy g‘azallariga; Hamza ijodida Haziniy, Avloniy; Sidqiy-Xondayliqiy ijodida Navoiy, Mashrab, Amiriy, Muqimiy, Xislat, Rashidiy, Zavqiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslarni uchratish mumkin.

Jadid shoirlari tomonidan yaratilgan taxmislar asosan ishqiy, tasavvufiy, didaktik mavzudagi g‘azallar asosida bitilgan bo‘lib, bu holning sababi o‘z-o‘zidan tushunarlidir. Ammo bu shoirlar o‘z zamondoshlari g‘azallariga taxmis bog‘laganda aynan millat, taraqqiyot ma‘rifat bilan bog‘liq g‘azallarni tanlaganlar. Masalan, Hamzaning ikki taxmisidan biri Abdulla Avloniy g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, bu bevosita ikki shoir hayoti va faoliyatining mazmuni, mag‘zini tashkil qilgan g‘oyalar bilan chambarchas bog‘langandir.

Jadid taxmislarida ularning mualliflari yashagan davr manzaralari ham qalamga olinadi.

*Zamona dastidan Shavkat tushubmen turfa motamga,*

*Urar to‘fonu qayg‘uqolabimdin mavj olamga,*

*Yoshunsam ich kuyar, sirrim deyolmam hech olamga,-*

deb yozadi Sidqiy-Xondayliqiy Rashidiy g‘azaliga bog‘lagan taxmisida. Uning shoir va shaxs sifatidagi motami, qayg‘usi esa butun ijodi, amaliy faoliyati orqali namoyon bo‘ladi.

Tasavvufiy mavzuga zamonaviy tus berish “Muxammasi Tavallo bar g‘azali Mavlaviy Yusuf Saryomiy”da ko‘zga tashlanadi. Tavallo Yusuf Saryomiyning

tasavvuf mazmunidagi gʻazaligabogʻlagan taxmisini toʻgʻridan-toʻgʻri “Millato” murojaati bilan boshlaydi. U Saryomiyning:

*Kim xabarsiz boʻlsa oʻzdan nafsu tanparvar boʻlib,*

*Bu qaro yer ostida qolgʻon baloga jonidur, -*

misralarga shunday qoʻshimcha qiladi:

*Naylayur millatga xizmat qilmasa dunyo kelib,*

*Yotubon gʻaflat toʻshokida jahonga termulib,*

*Ilmu fandin bahra olmay bir kuni ketgay oʻlib...*

Tavallo nazdida kishining jonini yer ostida qiynalishiga sabab – uning bu dunyoda millatga xizmat qilmagani, gʻaflat toʻshakida yotib, ilmu fandan bahra olishga intilmaganligidir.

Ishqiy gʻazallarga bogʻlangan muxammaslar jadid adabiyotida yetakchi oʻrin tutadi. Masalan, shoir Miskin ijodida Muqimiy qalamiga mansub mashhur

*Aqlu hush uchdi boshimdin, ey pari, devonaman,*

*Bir iloji qil, el ichra boʻlmayin afsona man, -*

deb boshlanuvchi gʻazaliga bogʻlangan muxammas mavjud.

“Odatda biror shoir tomonidan oʻzga bir shoir gʻazaliga bogʻlangan muxammas shu muxammas bogʻlovchining original asari sifatida qaraladi”<sup>25</sup>. Miskin taxmis uchun Muqimiy qalamiga mansub mashhur gʻazallarni tanlar ekan, avvalo, ularning badiiyatini, poetik goʻzallikni chuqur his qiladi va uni davom ettirishga harakat qiladi. Zero, “taxmisni shoir oʻzga shoirlar ijodidagi biror gʻazaldan taʼsirlanish natijasida yaratadi va muxammasda oʻsha gʻazaldagi fikr rivojlantiriladi, oʻz davri yoki sharoitiga moslashtiriladi. Taxmisda har bir banddagi dastlabki uch misra muxammas bogʻlovchi shoirga taalluqli boʻlsa, keyingi ikki misra gʻazal egasiga taalluqlidir”<sup>26</sup>. Lekin bogʻlanayotgan muxammas faqat gʻazaldagi fikrni rivojlantirish bilangina cheklanmay, badiiy jihatdan muxammas bogʻlanayotgan gʻazaldan qolishmasligi kerak.

<sup>25</sup> Абдугʻафуров А. Яли-яли кимники // Ўзбек тили ва адабиёти 1963, 1-сон. – Б. 66-67.

<sup>26</sup> Нотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча лугʻати. –Т.: 1983, – Б. 207.

Ma'lumki, muxammas bog'lash shoirdan katta mahorat talab qiladigan ijodiy an'ana. Bunda shoir taxmis uchun asos bo'lgan she'ning tub mohiyatini chuqur anglab yetishi, mazmuniy butunlikni saqlashi, baytlarga qo'shilgan uchliklarni shu bayt va g'azal mazmuni bilan uyg'unlashtirishi, baytlarda qo'llangan badiiy vositalarni takrorlamasligi, unda yangi timsollar va badiiy tasvir vositalarini qo'llashi, umuman, taxmis bog'lanayotgan g'azal darajasida yangi asar bitishi talab qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Miskinning ustoz Muqimiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari yuqoridagi talablarga to'liq javob beradi.

Xususan, Miskinning Muqimiy qalamiga mansub mashhur g'azallardan biriga bog'langan taxmisi bu fikrni tasdiqlaydi:

*Mahvasho, ishqingda doim bexudu hayronaman,  
Sham' ruxsoringni izlab oshiqi parvonaman,  
Chorasin gar qilmasang, bu o'tg'a bir kun yonaman,  
Aqlu hush uchi boshimdin, ey pari, devonaman,  
Bir iloje qil el ichra bo'lmayin afsona man.*

Shoirning mazkur muxammasi nihoyatda sodda, ravon, xalqona uslubda yozilgan. Bundan tashqari, Miskin tomonidan qo'shilgan misralar g'azal baytlari bilan nihoyatda uyg'un.

Savol-javob usuli mumtoz shoirlarmiz ijodida anchagina uchraydi. Navoiyning "Jonga chu dermen..." g'azali, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod va Xusrav munozarasi, Lutfiyning "Dudog'ing ma'dani jondur dedim" g'azalida shu usuldan foydalanilgan. Hamzaning bir ishqiy muxammasi hamsavolu javob tarzida bitilgan. Shoirning o'zi bu asarni muxammas deb belgilaydi, devonni nashrga tayyorlovchilar esa uni shartli ravishda "Noz o'zgachayu ko'ngil bo'lakcha" deb nomlaydilar. Muxammas 25 band – 125 misradan iborat. L.Qayumov esa bu asarni "poema" deyish mumkin deydi. Haqiqatan, hamza Muxammas janri imkoniyatlarini kengaytira borib, bu shaklda "Muhabbatnoma" tipidagi epik syujetga ega bo'lmagan kichik dostonni eslatadigan asar yaratgan.

Jadid ijodkorlari lirikasida hamd va na't mazmunidagi she'rlar, xususan muxammaslar salmoqli qismni tashkil etadi. Shulardan biri "YO hayot an-nabiy"

radifli muxammasdir. “YO hayot an-nabiy” jumlasining mumtoz she’riyatimizda radif sifatida qo‘llanishi dastlab Haziniy Ho‘qandiy ijodida uchraydi. Haziniyning ushbu radifdagi to‘qqiz baytli g‘azaliga Kamiy va Shevan (Sidqiy Xondaqliqiy) muxammas bog‘laganlar<sup>27</sup>. Aytish kerakki, XX asr boshlarida “YO hayot an-nabiy” g‘azaliga bog‘langan muxammas qo‘shiq sifatida xalq orasida juda mashhur bo‘lgan<sup>28</sup>. Masalan, Oybek “Qutlug‘ qon” romani qahramonlaridan biri Fazliddin xususida to‘xtalib, bu g‘azalning o‘sha davrda mashhurligi haqidagi detaldan tasvir obyektida asosli foydalangan<sup>29</sup>. G‘afur G‘ulom ham “Shum bola” qissasida bosh qahramon tilidan hikoya qiladi: “...Grammofondan Hamroqul qorining “YO hayot an-nabiy”sini eshitib, maza qilib choy icha boshladim”<sup>30</sup>. Bu davr adabiyotida ushbu radifda yaratilgan yana ikki muxammas ma’lum bo‘lib, biri Hamza<sup>31</sup>, yana biri Miskin qalamiga mansub. Har ikki shoir ham yuqoridagi g‘azal va muxammaslarning ohangi hamda mazmunini saqlagan holda mustaqil muxammas yaratgan. Miskin muxammasi “Bayozi Haziniy”da “Mulla Miskin Toshkandiy” sarlavhasi bilan berilgan bo‘lib, aruzning hazaji musaddasi axrabi makfufi maqbus (v--- v--v v-v-) vaznida yozilgan<sup>32</sup>. Shoirning na’t g‘azallarida ifodalangani kabi mazkur muxammasida ham asosan, o‘zining gunohkorligidan nadomat qilish, Muhammad alayhissalomning qiyomat kunida o‘zi uchun shafloatxoh bo‘lishidan umidvorlik motivlari yetakchilik qiladi. Muxammasdagi “*Qiling bir karam, yo hayotan nabiy; Man benavog‘a qiling bir madad; Shafloat kunida umidimki shul, tilang bizni ham, yo hayotan nabiy; Desangiz: bu Miskin mani ummatim, ketar dilda g‘am, yo hayotan nabiy*” misralari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Musammatning jadid adabiyoti davri yaratilgan faol janrlaridan yana biri – musaddasdir. Band oxirida misra yoki baytning takror qo‘llanishi (tarje’) ko‘proq musaddas va musammanga xos. Masalan, Kamiyning “Dilni obod aylangiz” to‘plamidagi to‘rtta musaddasning barchasida, Siddiqiy-Ajziyning uch

<sup>27</sup> Qarang: Армуғ‘они Хислат. – Т.: Г‘уломия матбааси, 1912. – Б. 91-94.

<sup>28</sup> Жўрабоев О. Нурлик ва эзгулик куйчиси//Назиний “Девон”ига сўзбоши. – Т.: “TAMADDUN” 2010. – Б. 15-16.

<sup>29</sup> Ойбек. Асарлар. 10 томлик.3-том. – Т.: 1969. – Б. 11.

<sup>30</sup> Г‘.Г‘улом. Танланган асарлар. –Т.: 2003. – Б. 277.

<sup>31</sup> Намза. ТАТ. 5 томлик.1-том. –Т.: 1988. – Б. 248-249.

<sup>32</sup> Баёзи Назиний. – Т.: “Осиё” матбааси, 1912. – Б. 8-9.

musaddasidan bittasida, Abdulhamid Majidiyning besh musaddasidan bittasida, So‘fizodaning uch musaddasidan bittasida, Avloniyning yetti musaddasidan oltitasida shu usul qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, jadid lirikasida musammat turkumi faol iste‘molda bo‘lgan. XX asr boshlari Turkiston xalqlari hayotining keng manzaralarini yaratishga chog‘langan ijodkorlar uchun “mavzu va g‘oya e‘tibori bilan” g‘azalga ergashadigan va “she‘riy talqinning birmuncha keng va teran tus olishi bilan undan farq” qiladigan musammat turkumi juda qo‘l keldi.

## UMUMIY XULOSALAR

Ko‘p asrlik o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida xamsachilik, devon tartib berish, tazkira tuzish, nazira bitish, bayozchilik singari ko‘plab adabiy an‘analar shakllangan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan milliy uyg‘onish davri adabiyotida ham bu an‘analarning aksariyati faol qo‘llandi. Bunda shu davrda yashab ijod etgan ko‘plab shoirlarning o‘ziga xos o‘rni bor.

Bitiruv malakaviy ish doirasida olib borilgan izlanishlar natijalaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko‘p ijodkorlarning she‘riyati mazmunan bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Jadid shoirlari ijodida maktab va maorif masalasi alohida o‘rin tutadi. XX asr avvalida millat ziyolilari diqqat markazida bo‘lgan maktab masalasi xususida bu davrning ilg‘or ma‘rifatparvar adiblari ijodida ko‘plab asarlar yaratilgan. Xususan, maktab, maorif, ilm olishga da‘vat etish masalalarida ular yakdillik bilan yondashdilar.

2. Bu davrda ro‘y bergan ayrim hodisalarga jadidlar o‘z munosabatlarini darhol bilanganlar. Jumladan, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston” gazetalarining, ayrim bayozlarning nashr etilishi munosabati bilan ularni muborakbod etib she‘rlar yaratdilar.

3. Birinchi jahon urushi, mardikorchilikka olish voqealari, Qo‘qon muxtoriyatining qonga botirilishi munosabati bilan yozilgan she‘rlarida ularning millat va vatan taqdiridan xavotirlari sezilib turadi.

4. XX asr boshlarida mamlakatimizda milliy uyg‘onish harakatini boshlab bergan fidoyi kishilardan biri, birinchi o‘zbek dramasi “Padarkush”ning muallifi Mahmudxo‘ja Behbudiyning vafoti munosabati bilan butun Turkiston motam tutadi. O‘nlab marsiyalar yoziladi. Shu munosabat bilan adib vafotiga davr ijodkorlari tomonidan yaratilgan bag‘ishlov marsiyalar ularning, qolaversa, o‘sha davr ziyolilarining o‘ziga xos ehtiromi va e‘tirofi sifatida yuzaga kelgan.

5. Turkiston ma‘rifatparvar adiblari va ziyolilari hayoti va faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan adib ismoilbek Gasprinskiy vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyalarda turkiy xalqlar uchun katta yo‘qotish bo‘lgan bu voqea munosabati

bilan milliy uygʻonish davri oʻzbek matbuotida juda koʻplab maqolalar, sheʼrlar chop etilgan, taʼrixlar bitilgan.

Birgina “Sadoyi Turkiston” sahifalarida Hamza, Tavallo, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Karimbek Kamiy, Miskin kabi shoirlarning marsiya-taʼrixlari nashr qilingani buning isbotidir. Ularda Ismoilbekning vafoti millat uchun buyuk fojia ekani taʼkidlanadi. Bu shunchaki yoʻqotish emas, butun Turkiston maʼrifatparvarlari uchun katta motam edi.

Gasprinskiy vafotiga bagʻishlov marsiyalar tom maʼnoda davrning dolzarb masalasi – maʼrifatparvarlik mazmunida boʻlib, ularda ijodkorlarning oʻziga xos nadomat bilan birga maʼrifatparvarlik qarashlari bayoni ham oʻz aksini topgan.

6. Xislat noshir sifatida milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining yetakchi manbalari boʻlgan bayozlarning nodir namunalarini yaratdi. “Armugʻoni Xislat”, “Savgʻoti Xislat”, “Hadyai Xislat”, “Tuhfai Xislat” kabi bayozlar shular jumlasidandir. Ular orasi eng mashhuri “Armugʻoni Xislat”ga koʻplab jadid shoirlari bagʻishlov-taʼrix sheʼrlar bitishdi. Bu sheʼrlar ularning maʼrifatparvarlikda yakdilligini koʻrsatuvchi omildir.

7. Jadid gʻazalyotda nazirachilik, sodda va xalqona ravon uslubda yozish anʼanasi yetakchilik qiladi. Xususan, Kamiy, Sidqiy-Xondayliqiy, Hamza singari ijodkorlarda bu yaqqol koʻzga tashlanadi. Shuningdek, gʻazalning mavashshah-gʻazal, musajjaʼ-gʻazal turlari keng qoʻllandi.

8. Jadid shoirlari ijodida musammat turkumining muxammas va musaddaslar turlari koʻproq, murabbaʼ va musammanlar qisman tarqalgan. Ular yaratgan murabbaʼlar oʻzining soddaligi, xalqonaligi, musiqiyliги bilan ajralib turadi. Bu davr ijodkorlarining oʻzga shoirlar gʻazaliga bogʻlagan muxammaslari bir qalam ostidan chiqqandek butunlik kasb etishi kuzatiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.- 174 b.
2. Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.  
2005. №4, 12-17 betlar.
3. A’zam A. Hijriy va milodiy taqvimlar kunma-kun mutanosiblik jadvallari. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2007. -268 b.
4. Abdulhakim N. Ozodlikka to‘langan tovon // “Tafakkur” jurnali. –T.:
5. Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – T.: “Fan”, 2005. -24 b.
6. Afoqova N. Jadid g‘azaliyoti. – T.: “Fan”, 2005. -34 b.
7. Afoqova N. She’r vaznini belgilash usullariga oid. // O‘zbek tili va adabiyoti. – T.: 2003. №6, 44-46 betlar.
8. Asadullayev S., Oqilov M. Ta’rix aytish san’ati // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 1972. №4, 67-70 betlar.
9. Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 j-lik. I jild. -T.: Ma’naviyat, 1998. - 272 b.
10. Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 j-lik. II jild. -T.: Ma’naviyat, 1998. -304 b.
11. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar.– T.:“Ma’naviyat”, 2001, -72 b.
12. Boltaboyev H. Mumtoz so‘z qadri. – T.: “Adolat”. 2004.- 192 b.
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.: “O‘qituvchi”, 1995. -112 b.
14. Hamidova M. Qo‘lyozma bayozlar - adabiy manba. – T.: “Fan”, 1981. -122 b.
15. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O‘qituvchi, 1997. -240 b.
16. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008. -194 b.
17. Ishoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: “Zarqalam”, 2006. -128 b.
18. Jabborov N. Ma’rifat nadir. – T.: “Ma’naviyat”, 2010, -112 b.
19. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy-ozodlik va istiqlol g‘oyalari // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 1996, №4, 16-23 betlar.
20. Jalolov A. Ozodlikni ulug‘lab. – T.: “Fan”, 1987. -50 b.

21. Jalolov A. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti. – T.: “Fan”, 1991. -155 b.
22. Jalolov A. O‘zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti. – T.: “Fan”, 1978. - 168 b.
23. Jalolov A. O‘zganboyev X. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtlı matbuotning o‘rni. – T.: Fan, 1993. -115 b.
24. Jo‘raboyev O. Haziniy To‘ra. – T.: “Fan”, 2007.- 136 b.
25. Jo‘rayev N. Ta’rix she’rlar jozibasi va sirlari // Til va adabiyot ta’limi. –T.: 2001. №5, 45-51 betlar.
26. Kamiy K. Dilni obod aylangiz. –T.: “Ma’naviyat”, 1998. -160 b.
27. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. (Birinchi kitob). – T.: “O‘zbekiston”, 2008. -536 b.
28. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”, 2009. -448 b.
29. Mahmudov G‘. Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzui. – T.: “O‘zbekiston”. 2007. -294 b.
30. Miskin. Savti dugoh. –T.: Akademiya, 2009. - 64 b.
31. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi ASN, 1976. - 168 b.
32. Qayumiy P. Tazkirai Qayumiy. Uch jildlik. Jild II. – T.: O‘zR FA qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi,1998. -469 b.
33. Qayumiy P. Tazkirai Qayyumiy. Uch jildlik. Jild I. – T.: O‘zR FA qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. -246 b.
34. Qayumiy P. Tazkirai Qayyumiy. Uch jildlik. Jild III. – T.: O‘zR FA qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi,1998. -714 b.
35. Qayumov A. She’riyat jilolari. – T.: “O‘qituvchi”, 1997. -128 b.
36. Qayyumov P.Tazkirat ush-shuaro. 2-kitob. – T.: O‘zR FA Davlat Adabiyot muzeyi tahrir bo‘limi, 2006. -182 b.
37. Qodiriy H. Otam haqida.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi ASN, 1976. -168 b.
38. Qosimov B. Izlay-izlay topganim. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. - 272 b.

39. Qosimov B. Milliy uygʻonish. – T.: “Maʼnaviyat”, 2002. -400 b.
40. Qosimov B. Salom, kelajak. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1986. -280 b.
41. Qosimov B. va b. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: “Oʻqituvchi” NMIU, 2004. 146-b.
42. Qosimov B. va boshq. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. – T.: “Maʼnaviyat”, 2004. -464 b.
43. Qosimov B. Oʻzbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. -600 b.
44. Quronov D. Adabiyotshunoslik lugʻati. – T.: “Akademnashr”, 2010. -400 b.
45. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: “Fan”. 1995. -160 b.
46. Said Z. Tanlangan asarlar. – T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi ASN, 1974. -208 b.
47. Tirik satrlar. (Toʻplovchi: M. Zokirov)-T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1968. - 293b.
48. Valixoʻjayev B. Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi (IX – XIX asrlar). –T.: “Oʻzbekiston”, 1993.-192 b.
49. Xislat. Tarannum. –T.: “MERIYUS”, 2009. -200 b.
50. Xondayliqiy S. Tanlangan asarlar. –T.: “Maʼnaviyat”, 1998. - 304 b.
51. Zavqiy. Ajab zamona. –T.: “Sharq”, 2003. -176 b.
52. Zokirjon Furqat. Maqolalar toʻplami. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. -152 b.
53. Oʻzbek adabiyoti tarixi (besh tomlik) IV tom. – T.: “Fan”, 1980. -420 b.
54. Oʻzbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat (Tuzuvchilar P. Shamsiyev, S. Ibrohimov) . – T.:Fan, 1953. -454 b.
55. Oʻzbek Milliy uygʻonish adabiyotiga materiallar. – T.: “Universitet”, 2004. - 108 b.